

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

RADJABOVA FAZILAT

CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASIDA
GLOTTODIDAKTIKNING O'RNI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : Kat.o'qit. Toskani M.

BMI Fransuz tili fonetikasi va
grammatikasi kafedra majlisida
muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi.

Bayonnoma № ____
2012 yil “ ____ ” may

Kafedra mudiri: f.f.n. Suvonova N.

Samarqand – 2012

KIRISH.....	3
BOB I. METODIKA FANI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR.....	7
1.1. Chet tillarini o'qitish metodikasi fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	7
1.2. Chet tillarini o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.....	10
1.3. Zamonaviy va tarixiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyati.....	26
1.4. I bobga xulosa.....	40
BOB II. CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASI FANINING GLOTTODIDAKTIKADAGI O'RNI VA RIVOJI.....	41
2.1. Paolo Ernesto Balboni va uning glottodidaktikadagi tadqiqotlari.....	43
2.2. Glottodidaktikada yangi innovatsion ped texnologiyalarning roli.....	47
2.3. Komunikativ metodining glottodidaktika fanida tutgan o'rni.....	49
2.4. Bob II ga xulosa.....	51
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55

KIRISH

Tadqiqot mavzuining dolzarbligi. Bizning respublikamizda bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni turli sohalarda yaxshi faoliyat olib borishga tayyorlash lozim. Prezidentimiz Islom Abdugʻanievich Karimov “Har kim chuqur va mustahkam bilimsiz oldimizda turgan vazifalarni bajarish mumkin emasligini tushunmogʻi darkor”¹ deya taʼkidlaydilar. Buni amalga oshirishda chet tili ham hissasini qoʻshadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning taʼbiri bilan aytganda, “Bugun jahon hamjamiyatidan oʻziga munosib oʻrin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda oʻz buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yoʻqdir”.

Binobarin, xorijiy tillarni har tomonlama chuqur oʻrganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri boʻlmogʻi lozim.

Bugungi kun har birimizga yangidan yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Chet tillarini oʻrganish ham muhim masalalardan biriga aylanib qolgan. Mana shu chet tillarini oʻqitish uchun har bir oʻqituvchidan kattta mahorat va tajriba talab etiladi. Chet tillarini oʻqitish metodikasi shu soha boʻyicha mutaxassislarini tayyorlashda yetakchidir. Bu fanni oʻrganish orqali har bir oʻqituvchida bilim va koʻnikmalar hosil boʻladi. Tabalarga faqat eski va ular uchun zerikarli boʻlgan metodlar orqali dars oʻtilsa, ular uchun chet tili tushunarsiz hamda qiyin bir fanga aylanib qoladi. Aksincha, har bir oʻqituvchi dars davomida yangi ped – texnologiyalar, metodlar va usullardan foydalangan holda darsini olib borishga harakat qilishi kerak.

“ Iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilgʻor bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak maʼnaviyatli, yuqori

¹ Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent, Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi 2000 – yil.

malakali mutaxassis bo'lib yetishlariga moddiy – ma'naviy homiylik qilish kerak"² deya ta'kidlaydi prezidentimiz. Buning uchun esa avvalo ta'lim sistemasida o'qitish metodlari yuksak darajada bo'lishi talab etiladi.

Italyan tilining o'qitish metodikasi ham boshqa barcha tillarning metodikasi kabi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, oxirgi yillarda bu fanning muhimligiga shubha qolmadi va italyan tili birinchi chet tili sifatida o'qitiladigan barcha oliy o'quv yurtlarining dars rejalariga kiritildi. Italyan tili ham hind yevropa tillari oilasining murakkab grammatika, fonetika va orfografiyaga ega bo'lgan bir tilidir. Shuning uchun ham ko'p talabalar bu til o'zbek tilidan tamoman farq qilgani uchun uni o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Italyan tilining o'qitish metodikasini yaxshi bilgan, tajribali o'qituvchi shu qiyinchiliklarni inobatga olgan holda talabalarga tilni osonroq tarzda o'rgatishga harakat qiladi. Bilmagan o'qituvchi esa talabalarga yanada ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. BMI ning asosiy maqsadi metodika fani bilan bog'liq bo'lib, italyan tili metodikasining paydo bo'lishining tarixiy bosqichlarini o'rganib, italyan tilining o'qitish metodikasi asoslarini yaratishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- italyan tilining o'qitish metodikasi tarixiga oid ma'lumotlarni jamlash;
- italyan tilini o'qitish jarayonida qaysi metodlar eng ko'p qo'llanilganligini va qanday natijalarga erishilganini aniqlash;
- glottodidaktika fanining mohiyati, mazmuni, predmeti va vazifalarini ochib berish;
- chet tillarini o'qitish jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan kommunikativ metodining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- glottodidaktikada yangi ped – texnologiyalarning ahamiyatini belgilash;

² Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasidagi 48 – ma'ruzasi Toshkent O'zbekiston 2012 – yil.

- italyan metodistlarining ta'lim sohasidagi yutuqlari bilan tanishish;
- ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalarning o'rnini belgilash;

Tadqiqot predmeti va ob'yekti.Italyan tilini o'qitish jarayonidagi barcha qiyinchiliklarni inobatga olgan holda yangi metodlarni tadbiq etish.Shuningdek boshqa chet tillarining o'qitish metodlarini ham tahlil etish.

Tadqiqot metodlari.BMIning asosini chet tillarini shuningdek italyan tilining o'qitish metodlari, tarixiy va zamonaviy metodlarning qiyosiy tahlili, ta'lim jarayonida ko'proq yutuqlarga erishish uchun yangi ped – texnologiyalardan foydalanish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati.Tadqiqotning nazariy ahamiyati uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi natijalarga erishildi:

- italyan tilining o'qitish metodikasi bo'yicha to'plangan barcha ma'lumotlar va adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilgan holda tadqiqotning asosi aniqlandi;
- italyan tilini o'qitish jaryonida qaysi metodlar eng ko'p to'g'ri kelishi aniqlandi;
- glottodidaktika fanining mazmun mohiyati, predmeti, maqsadi va vazifalari o'rganildi;
- italyan metodistlarining ta'lim sohasidagi yutuqlari bilan tanishildi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati.Tadqiqotning amaliy ahamiyati til o'qitish jarayonida italyan hamda boshqa chet tillarining o'qitish uchun qaysi metodlarni qo'llash jarayonida yutuqlarga ko'proq erishilgani aniqlanib, ped amaliyotda namoyon bo'lgan natijalar, erishilgan yutuqlarni ko'rsatib berish asosida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish.BMI Samarqand davlat chet tillari instituti fransuz tili kafedrasida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan SamDCHTI talabalarining an'anaviy ilmiy konferensiyasida (2012 y.) ma'ruza qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy tuzilishi.BMI kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 55 bet.

BOB I

METODIKA FANI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

Metodika fanining tarixi uzoq ya'ni antik davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston faylasuflarining ko'pchiligi o'zlarining metodikalarini ishlab chiqqanlar. Metodika so'zining o'zi ham yunon tilidan olingan bo'lib, "meta" so'zi izlanish, maqsad ma'nolarini bildirsa, "xodos" esa yo'l degan ma'noni bildiradi. Umuman olganda metodika fani haqiqatni anglash, unga yetishishning yo'llarini o'rganuvchi fandir. Professor Raxmonov metodikaga va metodlarga ta'rif berarkan, ularni maqsad sari yo'naltirilgan sistema bo'lib, bir – birlari bilan shartli bog'langan deb ta'rif beradi.

Buyuk faylasuf Arastu (384 – 322 mil. av.) ham o'z zamonasining muammolarini hal etishda turli metodlardan foydalangan va shunga oid "Organon" asarini yozgan. Unin fikricha, inson har bir savolga javob topishi uchun unga deduktiv metodi juda ham qo'l keladi. Bu metodda barcha fikrlar, mulohazalar inobatga olinadi va faqatgina isbotlangan, dalillarga ega bo'lganlari tanlanadi hamda shu bilan muammo hal etiladi. U zamonlarda faylasuflarni asosan bizni o'rab turgan olamning asosini nima tashkil etishi qiziqtirgan. Geraklit, Zenon va Platonlar ham bu masalaga oid fikrlar bildirishgan va o'zlarining metodlariga ega bo'lishgan.

O'rta asrlar ya'ni Uyg'onish davrining vakili Fransis Bekon (1561 – 1626) ham metodika faniga oid fikrlar bildirgan. Arastuning aytganlarini rad etgan holda Fransis induktiv metoddan foydalanishni eng to'g'ri yo'l deb o'ylaydi, "Yangi Organon" asarini shu haqda yozadi. U paytda eng muhim sanalgan muammolardan biri – bu Yaratganni anglash va tushunish edi. Bekonning fikricha, faqatgina asosiy va muhim bo'lgan fikr va mulohazalar biron – bir muammoni hal etishda ko'rib chiqilishi kerak, aksincha muhim bo'lmaganlariga ahamiyat berish shart emas.

Ratsionalizm oqimining asoschisi hisoblangan Rene Dekart (1596 – 1650) ham metodika bo'yicha o'z qarashlariga ega bo'lgan va fikrlar

bildirgan.Uning fikricha, har bir muammoning yechimi - bu matematika. Bundan tashqari, har bir narsani anglash uchun shubxa, faraz qilishni muhim deb hisoblaydi.Chunki, aynan shubxa haqiqatning asosiga aylanishi mumkin.

Dekartning ratsionalistik metodiga qarshi Buyuk Britaniyada empirik metodi yuzaga keldi.Uning asoschisi David Yum (1711- 1776) hisoblanib, bu metodga ko'ra ilohiy hodisalar faqtgina tabiiy qonunlar asosida tushuniladi.Inson ongida kechadigan g'oyaviy jarayonlarni tahlil qilish orqali barcha fanlarning asosi, bosh g'oyasini tushunish mumkin deb o'ylaydi.

David Yumdan keyin Immanuil Kant (1724 – 1804) o'z metodini taklif etadi va unga ko'ra har qanday haqiqatni bilish uchun nafaqat inson miyasi funksiyalarini bilish, balki uning ichki dunyosi va his tuyg'ulari han muhim sanaladi.Gegel (1770- 1831) metodi esa boshqalarnikidan farqli o'laroq ko'proq insoniyatning va butun dunyoning rivojlanishiga qaratilagan .”Vaholanki, har qanday rivojlanishning va taraqqiyotning asosida raqobat, qarama- qarshilik yotadi” deya ta'kidlaydi Hegel.Tezis (ta'kid), antitezis (inkor) va sintez (inkorni inkorlash) singari tushunchalar muhim sanaladi.

Yevropa mamlakatlarining har xil millatli bo'lishiga qaramasdan ularda ta'lim shakli va qonun – qoidalari juda ham o'xshash deb yozadi Franchesko Pedro o'zining 1993 – yilgi maqolasida.Bir necha asrlar o'tgan bo'lsa – da, hozirgacha Yevropa maktablarida va Oliy o'quv yurtlarida ta'limni tashkil etishda bir xil hamda umumiy bo'lgan qadriyatlar, odatlarni ko'rishimiz mumkin.Bu mamlakatlar bir – birlarining tajribalaridan foydalangan holda ta'lim sohasini rivojlantirishga harakat qiladilar.Ba'zi bir klassik bilim dargohlarining nomlari hozirda ham ishlatilyapti.Masalan, nemislarning “gymnasium” i, italyanlarning “il liceo” si hamda inglizlarning “grammar school” lari fikrimizning yaqqol dalilidir.³

Har bir mamlakatning ta'lim sistemasida jamiyatdagi o'zgarishlar va yangiliklarga bo'lgan moyillik juda asta – sekinlik bilan ro'y beradi.Faqtgina

³ Francesco Pedro ' Tradizione e innovazione nelle scuole europee,” La scienza “articolo numero 295, Roma 1993.

konservativ va neoliberal davlat boshqaruviga ega bo'lgan davlatlarda bu moyillik yuqori darajada. Ta'lim sohasida qilingan har qanday sa'y – harakatlarga qaramasdan bu sohaning inqirozda ekanligi haqida Xalqaro ta'limni loyihalashtirish instituti (International Institute of Educational Planing) professori Philip Coombs o'zining 1968 – yilgi The World Crisis of Education (Butun dunyoning ta'lim inqirozi) asarida ta'lim sohasidagi doimiy inqirozlar haqida batafsil gapirib o'tgan.

1.1.Chet tillarini o'qitish metodikasi fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Biz bugun o'ta rivojlangan, “murakkab” jamiyatda yashamoqdamiz. Murakkab deyishimizdan maqsad bir necha asr oldin jamiyat oddiy ko'rinishda bo'lgan. Eng oddiy misol musiqani oladigan bo'lsak, XIX asr odamlari musiqani tinglash uchun teatrga yoki konservatoriyalarga borishgan. Bizning kunimizga kelib esa minglab musiqiy dasturlar, radio va televideniya vositalaridan o'z uyimizda bimalol, xoxlagan musiqamizni tinglay olamiz.⁴

Jamiyat rivojlanib borayotgan bir paytda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib boryapti. O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida ona tilidan tashqari boshqa bir ikkinchi tilni bilish faqatgina yuqori tabaqa vakillariga xos bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib mass media va publitsistikaning rivojlanishi bilan xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng G'arbda ingliz tili va kommunistik davlatlarda rus tilini bilish majburiy talabga aylangan edi. XXI asrga kelib nafaqat bitta chet tilini, balki bir nechta chet tillarini bilish kishilik jamiyatining bag'oyat muhim sohalaridan sanalmoqda. Chet tillarini mukammal egallagan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Biz agarda biron – bir tilning ashshaddiy “shaydosi” bo'lib qolgan bo'lsak, uni o'rganish uchun imkoniyatlarimiz yetarlicha deb o'ylayman.

⁴ Balboni P.E. Le sfide di Babele, Torino:Gravinese 2010.

Yuqorida biz metodika fanining umumiy tarixini ko'rib chiqdik. Endi esa aynan chet tillarini o'qitish metodikasining vujudga kelish tarixini ko'rib chiqamiz. Chet tillarini o'qitish metodikasi fan sifatida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllana boshlagan. Akademik Sherba birinchilardan bo'lib uni fanga kiritgan. Bu fan chet tillarini o'qitishning maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlari va tarkibiy qismlarini o'rganadigan fandır. Klimetenko va Mirolyubovlarning fikricha chet tillarini o'qitish metodikasi fani talabani o'qituvchi darajasiga ko'tarilishiga yordam beruvchi fandır.

Chet tillarini o'qitish metodikasi fanini umumiy va xususiy metodikaga bo'lib o'rganamiz. Umumiy metodika til o'rganish uchun kerak bo'lgan umumiy qoidalarni ifodalaydi. Masalan, tillarni o'qitish uchun kerak bo'ladigan o'quv – uslubiy qo'llanmalar, vositalar, adabiyotlar. Xususiy metodika esa chet tillarini o'qitishda alohida qismlarga e'tibor qaratadi. Masalan, fonetikaning o'qitilishi, grammatikaning o'ziga xos xususiyatlarini o'qitish va hokazo. Fanning asosiy maqsadi Oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet tillarini o'qitishning asosiy, o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bo'lsa, vazifalari quyidagicha:

1. Oliy o'quv yurtlarida boshqa barcha fanlar singari chet tillarini o'qitish metodikasi fanini ham dars jadvallariga kiritish.
2. Barcha Oliy o'quv yurtlarida ham nazariy, ham amaliy jihatdan zamonaviy, talabga javob bera oladigan ta'lim usullaridan foydalanish.
3. Chet tillarini o'qitishda talabalarda komunikatsiyani, to'g'ri yozish va o'qishni mustahkamlash uchun o'quv qo'llanmalari, adabiyotlar joriy etish.
4. Talabarni ularning bilimlariga yarasha to'g'ri baholay bilish.⁵

Fanning predmeti chet tillarini o'qitish bo'yicha barcha modellar va usullarni umumlashtirgan holda ulardan foydalanish. U kingvistika, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika, didaktika fanlari bilan o'zaro aloqasi bor. Shulardan asosan pedagogika va didaktika bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogika fanini oladigan bo'lsak, uning maqsadi yosh avlodga

⁵ Ciliberti A Grammatica, pedagogia, discorso, Firenze: La Nuova Italia, 1991.

ta'lim berish va ularni yetuk kadrlar darajasiga ko'tarishdan iborat. Didaktika esa ma'lum ma'noda metodika fanining asosi desak adashmaymiz. Chunki, metodika didaktikaning amalda qo'llanilishi hisoblanib, uning qoida – qonunlariga ko'ra ish yuritadi.

Hozirgi kunga kelib chet tillarini o'qitish eng muhim masalalardan biri sanaladi. Yevropa Ittifoqining fikriga ko'ra bu fan talabalarda komunikativ bilimlarni shakllantirishga yordam beradi va mamlakatlararo o'zaro munosabatlarda ham muhimdir. Birinchi navbatda lingvistik jihatdan asosiy e'tibor til sistemalariga emas, balki nutqni rivojlantirishga qaratiladi. Ikkinchidan, sotsiolingvistik va sotsial – madaniy bilimlarni va strategik bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Bunda to'g'ri va ta'sirchan nutq tuza bilish o'rganiladi. Har bir strategic maqsadga erishish uchun yaxshi aytilgan nutq muhimdir. To'rtinchidan esa, sotsial bilimlarni ya'ni tolerantlik va sabr – toqat kabi xislatlarni shakllantiradi.

Chet tillarini o'qitish metodikasining fanligiga hozirgi paytda hech kim shubha bilan qaramaydi. XVIII asrlargacha ayrim olimlar chet tilini o'qitish metodikasini qiyosiy tilshunoslikning amaliy tadbig'idir deb qarasalar, boshqalar pedagogika deb hisoblaydilar.

Bu fan o'z ichiga chet tillarini o'qitishning maqsadlari, mazmuni, qonuniyat, metod, vositalari, yo'l va usullar, o'qitish tizimini o'rganish hamda o'rgatish bilan shug'ullanuvchi, uni rejalashtiruvchi, shuningdek, chet tili orqali o'quvchilar, talabalarni tarbiyalash jarayonlarini amalgam oshiruvchi fan sifatida shakllanishida hamda rivojlanishida pedagogika, psixologiya va tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqasi muhim bo'lmoqda.⁶

Bizning respublikamizda ham bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni estetik tarbiyalash hamda turli sohalarda yaxshi faoliyat olib borishga tayyorlash lozim. Buni amalgam oshirishda chet tili ham o'z hissasini qo'shadi.

⁶ Bernini *Lingue straniere e universita'*, Milano: Franco Angeli, 1992.

1.2. Chet tillarini o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Chet tilini o'qitish metodikasi shu soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda yetakchidir. Metodika fanining o'z maqsadlari, mazmuni, metodik tushunchalari, ilmiy tekshiruv metodlari, vositalari mavjud. Chet tili o'qitish metodikasi lingvodidaktikaning ajralmas qismidir. Lingvometodika fani esa ona tili va chet tillarini o'qitish metodikasini o'z ichiga oladi. Chet tilarini o'qitish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

1. Bo'lajak mutaxassislarda chet tili o'qitish metodikasidan keng nazariy zamin yaratish.
2. Talabalarda ta'limning tamoyil, metod vositalarini samarali ijodiy qo'llash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Chet tillarini o'qitish metodikasi fanining nazariy asosi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. Hozirgi davr chet tili o'qitish metodikasi maktab, akademik litsey, kasb – hunar kollejlari va Oliy o'quv yurtlarida metodikaning asosiy qismlarini yoritish va o'qituvchi ining asosida o'quvchi va talabalarga ta'lim berish.
2. Talabalarga chet tilini o'qitishning ilg'or metod va usullarini tanishtirish.
3. Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qism, vositalarini yoritish.
4. Seminar mashg'ulotlari orqali mutaxassislik uchun zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.
5. O'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish.
6. Bo'lajak o'qituvchilarni maxsus ilmiy – metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'z kasbi ustida mustaqil shug'ullanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash,

I.L.Bim metodikaning asosiy ob'yektiga o'quv fanlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi dastur, darslik, o'quv qo'llanmalari va o'qitish jarayonining tashkiliy shakllarini kiritadi. Uning fikricha, har bir fanning o'z ob'yekti bo'lib, uni o'zining nuqtai nazaridan o'rganadi. Bu fan maktab va Oliy o'quv yurtlarida chet tilidan nimalarni o'rgatish, o'rganish va qanday o'rgatish masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tili o'qitish metodikasi batcha o'quv dargohlarida

o'qitiladigan tillar bir – biriga ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hali yaxshi o'rganilmagan ijobiy ta'sir shundaki, ona tilida tarkib topgan qator ko'nikmalar chet tilini o'zlashtirishga aks ta'sir ko'rsatadi. Unin mohiyati shundaki, o'quvchi o'z ona tilining odatlangan me'yorini chet tiliga ko'chiradi.

Metodika o'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, ko'chirilish hodisasining keng qo'llanilishi va interferensiya hodisasining oldi olinishini ta'minlash zarur. Fanimizda olib boriladigan tadqiqotlar uchun boshqa pedagogika fanlarida qanday metodlar qo'llanilayotgan bo'lsa, asosan o'sha metodlar metodika va bir – biriga yaqin bo'lgan fanlarga doir adabiyotlarni tahlil qilish, o'quvchilarning ish tajribalarini o'rganish va umumlashtirish hamda tajribalar va tajriba ishlari o'tkazish metodlari qo'llaniladi.

Tadqiqot metodlarida haqiqat bilinadi; ob'yektiv borliq hodisalarining qonuniy aloqalari ochiladi. Ilmiy tadqiqot metodlaridan birontasi ham universal ahamiyatga ega bo'la olmaydi. Tadqiqotning vazifasi va mazmuniga qarab tegishli metodlar tanlanadi. Metodistlarni duch keladigan vazifalarning murakkabligi pedagogik tadqiqotlarning barcha xilma – xil metodlaridan foydalanishga majbur etadi. Tadqiqotlar turli metodlar bilan birgalikda masalalarni zarur to'ralikda va chuqur o'rganishni ta'minlaydi.

Metodikada ilmiy tadqiqotning eng muhim metodlaridan biri eksperimentdir. Eksperiment – tajriba orqali bilishning bir turidir. Eksperiment hodisasini mufassal va aniqroq kuzatish maqsadida bu hodisaning sodir bo'lishi jarayoniga inson faol ta'sir ko'rsata olishi uchun uni tajriba orqali o'rganish metodini talab etadigan ilmiy bilishning taraqqiyoti ehtiyojlarga ko'ra yuzaga kelgan.

Chet tilini o'qitish metodikasida mazmun va forma jihatdan xilma – xil bo'lgan ishda ko'p eksperimentlar o'tkazilgan va eksperiment nazariyasiga doir talay material to'plangan. Nutq malakasini egallash va til materialini o'zlashtirish borasidagi o'qituvchining faoliyati ham, o'quvchining faoliyati ham eksperimental o'rganilgan. Eksperimentning tadqiqot metodi sifatida afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Eksperimentda tadqiqotchi ob'yektiv kuzatishdagi singari tasodifiy hodisa oqimi unga kuzatish imkonini bergunicha kutib turishning o'rniga o'zi o'rganayotgan hodisani keltirib chiqaradi.
2. Eksperiment olib boruvchi o'rganilayotgan hodisani yuzaga keltirish imkoniga molik bo'lib, hodisa sodir bo'ladigan sharoitni oddiy kuzatishdagi singari u qanday holda ko'rinsa, o'shanday olish o'rniga, yangi shaklga solish, o'zgartirishi mumkin.
3. Ayrim sharoitlarni alohida ajratib va boshqalarini saqlab ulardan birini o'zgartirish bilan birga eksperiment ayrim sharoitlarning ahamiyatini ochib beradi va o'rganilayotgan jarayonni belgilovchi qonuniy aloqalarni o'rnatadi.

Gipoteza (ilmiy faraz) larni oldinga surish ham murakkab masala hisoblanadi. Eksperiment o'tkazish tadqiqotchidan eksperiment qilinadigan vazifalarning aniq belgilangan va shakllangan bo'lishini talab qiladi. Eksperiment uchun mazkur muammoning yechilishi mumkinligini taxmin qilish, ya'ni gipoteza muhimdir. Eksperiment tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan ilmiy, asoslangan gipoteza asosida tashkil etiladi. Eksperiment ana shu gipotezani tekshirishga qaratilagan.

Gipoteza nazariya va praktikaning barcha yutuqlariga ilmiy tadqiqot ishlarining umumiy metodologiyasiga suyanish kerak. Shu bilan birga, ishlanayotgan mavzu amaliyotda yetarli yoritilmagan bo'lishi va gipotezani asoslash hamda ochib berish uchun yetarli nazariy va praktik ma'lumotlar bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda gipotezani ba'zi umumiy, nazariy mulohazalarga ayrim kishilarning xususiy tajribalariga, tadqiqotchining shaxsiy tajribasiga asoslanib chiqarilgan ozmi –ko'pmi to'g'riroq bo'lgan taxmin zaminida yaratishga to'g'ri keladi. Bunday holda gipoteza yaratishning o'zi eksperiment talab qiladigan xususiyatga ega bo'lib qoladi va binobarin kuzatish tajribasi o'tkaziladi.

1.3. Zamonaviy va tarixiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyati

Chet tillarini o'qitishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar qo'llanilgan. Jumladan, quyidagi o'rgatish metodlari haqida fikrlar bildirilganini ko'ramiz:

1. Grammatik – tarjima metodi.
2. Leksik – tarjima metodi.
3. To'g'ri metod.
4. Palmer metodi.
5. Uest metodi.
6. Audio – lingval metod.
7. Ongli taqqoslash metodi.
8. Komunikativ metodi.
9. Problemali (muammoli) o'qitish metodi.
10. Intensiv metod.
11. Proektlab o'qitish metodi.
12. O'qish metodi (Reading method).
13. ASTO (Army Specialised Training Program).
14. Gumanistik metodlar.

XX asrda eng ko'p qo'llanilgan metodlardan biri – bu Grammatik – tarjima metodi bo'lib, bu metod italyan oliy o'quv yurtlarida 1970 – yillargacha birinchi o'rindagi metod sifatida bo'lgan. Hatto hozirgacha ham butun dunyo bo'yicha Universitetlarning ba'zilarida bu metodni qo'llash orqali yaxshi natijalarga erishilmoqda. Metodning o'ziga xos xususiyatlari: asosiy e'tibor grammatik qoidalarni yodlashga qaratilgan bo'lib, bu qoidalar ona tiliga tarjima qilish orqali yaxshi esda saqlangan. O'qituvchi asosiy ma'lumotlar bazasi hisoblangan va talaba ko'proq o'qituvchiga tobe bo'lgan hamda o'zi mustaqil ravishda juda ham kam ishlagan. Lekin shunga qaramasdan, juda ko'p dotsent va fan nomzodlari aynan shu metod orqali tillarni o'rganishgan.⁷

⁷ Balboni P.E. Le sfide di Babele , Torino: Gravinese, 2010.

Grammatik qoidalarini yodlashdan tashqari talabalarga diktant, yozma ish yozdirish ham muhim bo'lgan , biroq hech qanday texnik vositalardan foydalanilmagan.

XX asrning yana bir asosiy metodlardan biri Berlitsning to'g'ri metodi hisoblanadi. Maksimilian Berlits chet tillarini o'qitish yo'nalishi bo'yicha birinchi maktablarni ochishga muvaffaq bo'lgan tilshunosdir. Berlits Language Schools birinchi marta 1878 – yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi paytda dunyoning 70 ta mamlakatlarida 550 ga yaqin xuddi shunday maktablar faoliyat yurgizmoqda.

O'qituvchilar va matematiklar oilasida tug'ilgan Berlitsning bolaligi Germaniyada o'tadi. 1872 – yilda uning oilasi AQSH ga ko'chib keladi. Aynan shu yerda grek, lotin va boshqa Yevropa tillarini o'rgangan Berlits o'zining o'qituvchilik faoliyatini Warner Polytechnic College da fransuz va nemis tillarini o'qitish bilan boshlaydi. Keyinchalik o'zi yaratgan metod orqali tanila boshlaydi. Chunki bu metod chet tillarini tez o'rganishga yordam beradi. Bu metodda birinchi navbatda o'qituvchilar faqatgina ona tilisi bo'lsa, biron – bir tilni o'rgata olishgan. Ya'ni italyan yoki fransuz tilini o'qitayotgan o'qituvchi aynan italyan yoki fransuz millatiga mansub bo'lishi shart. Ikkinchidan, dars o'tish jarayonida faqat chet tilida gaplashilgan. Asosiy e'tibor muloqotga qaratilgan bo'lib, chet tilidagi qoida va ko'rsatmalar ona tili bilan taqqoslangan holda o'rgatilgan. Bu metodda ham hech qanday texik vositalardan foydalanilmagan.⁸

Aytib o'tish joizki, bu metod XIX asrning oxirlaridan asosan Buyuk Britaniya, AQSH va Shvedsariyada keng qo'llanilgan. Italiyada esa 1898 – yili oktabr oyida Rimda birinchi marta Berlits maktabi ochiladi va bu maktabda ham til o'qitish to'g'ri metod orqali amalga oshiriladi. Lekin ikkinchi jahon urushi paytida fashistik diktaturasining tazyiqi ostida bu maktab yopiladi. Faqatgina 1980 – yillarga kelib Rim bilan birga Milanda ham Berlits maktabi ochiladi. Maksimilian vafotidan so'ng uning jiyani Charls Berlits uning ishini

⁸ w.w.w.berlitz.com

davom ettiradi.Osiyo hududida birinchi Berlits maktabi Yaponiyada Tokioda 1966 – yilda ochiladi.

Janubiy Karolina (1941) Universitetining professori va tilshunosi Stiven Krashen ham til o'qitish bo'yicha o'zining metodlarini taklif qiladi.1981 – yilda SLAT (Second Language Acquisition Theory) ya'ni ikkinchi tilning o'rganilish nazariyasini ishlab chiqadi.Uning fikricha, ikkinchi tilni o'rganish uchun ona tilini o'rganayotgan paytda qanday qadamlar qo'yilgan bo'lsa, xuddi shunday ikkinchi til ham o'rgatilishi kerak.O'qituvchi talabalarga majburlash orqali til o'rgatmasligi kerak.Grammatik qoidalar, so'zlarni yodlash esa talabalarning o'zlari tomonidan mustaqil tarzda olib boriladi.Bu jarayonni Krashen learning deb nomlaydi.

XX asrning birinchi yarmida dunyo davlatlariga safar qilish imkoniyati bo'lmagan.O'sha davrning siyosiy davlat boshqaruvi dunyo xalqlariga erkin axborot almashish imkonini bermagan.Benito Mussolini, Adolf Gitler, Frank ova Salazar singari davlat rahbarlari bunga yo'l qo'yishmagan.Shuning uchun ham faqatgina chet elliklarning ilmiy ishlari, badiiy asarlarini, dissertatsiyalarini o'qish bilan o'rganish mumkin bo'lgan.Bu metod har bir talaba uchun majburiy bo'lmagan.Kimki xoxlasagina chet el gazeta, jurnallari yoki kitoblarini o'qib, malakasini oshirgan.Qilinadigan vazifa faqat o'qish va tarjima qilish bo'lgan.Shuning uchun ham bu metod o'qish ya'ni reading method deb atalgan.

Yana bir muhim metodlardan biri ASTP (Army Specialised Training Program) harbiy mutaxassislikni rivojlantiruvchi dastur metodidir.Ko'pincha harbiylar va josuslar tomonidan qo'llanilgan bo'lib, bu metod harbiylarga dushman chegarasiga kirib olib, o'sha mamlakatning maxfiy ma'lumotlarini bilib olish uchun avvalo o'sha hududda gaplashiladigan tilni o'rganishlari uchun muhim sanalgan.Bu metodda til o'qituvchilari uchta yo'nalish bo'yicha ta'lim berishgan.Biri ona tili va chet tilidan dars bersa, ikkinchisi madaniyatdan, uchinchisi esa geografiyadan dars berishi kerak bo'lgan.Asosiy e'tibor suhbatga

va tarjimaga qaratilgan hamda kitoblar bilan birga filmlar ham qo'yib berilgan. Radio, audio va boshqa texnik vositalardan ham keng foydalanilgan.⁹

Ingliz metodisti Garold Palmer Tokioda yashab yaponlarga ingliz tilini o'rgatadi. Ingliz tilini o'rgatish natijasida o'z metodini yaratadi. Uning metodi tinglab qabul qilishga va yodlab o'rganishga asoslangan. Palmerning asosiy metodik tamoyillari:

1. Til o'rgatishni og'zaki nutqdan boshlash.
2. Bir yoki ikki oy davomida inkubatsiya davrini o'tkazish. Bu davrda o'quvchilar ona tili ishtirokisiz faqat ingliz tilini tinglashlari kerak. Uning fikricha, ona tili ishtirokisiz til o'rgatishga ko'p vaqt ketmaydi.
3. Grammatik materialni jadvalda qoida bermay o'rgatish.
4. Tilni alohida olingan gaplar tartibida o'rgatish.
5. Qiyin mashqlarni asta – sekinlik bilan berish.
6. Psixologik omil - qiziqishga, qiziqtirishga ahamiyat berish.
7. O'quvchilarning quloqlarini ko'zlariga qaraganda oldinroq, tezroq ishlatish, chunki material og'zaki o'rgatilgan.

Bundan tashqari, audio – lingval metod va audio – visual metodlar ham mavjud bo'lib, birinchisida og'zaki nutq yozma nutqdan avval o'rgatiladi. Yozuvda faqat og'zaki nutqda o'rgatilgan materiallar beriladi. Ko'pincha amaliy mashqlar bajariladi va o'quvchilarning darsdagi 15 % vaqti o'rganilayotgan materialni tushuntirishga, qolgan 85 % vaqti esa tinglash, gapirish bo'yicha mashq bajarishga ajratiladi.

Audio – visual metod esa XX asrning 40 – yillaridan rivojlana boshlagan. Uning asoschilari Yugoslav metodisti Pyotr Guberina, fransuz metodistlari Pol Revank va Jorj Gugeneymlardir. Bu metodda jonli tilning dialogik shakli olingan, o'qish o'rganishning asosiy shakli nutq deb qaralgan. Yangi material butun strukturalarni tinglash, ko'rish orqali beriladi. Audio – visual metod orqali chet tilini o'rgatishda, o'rganishga o'quvchilar o'rganayotgan materiallarini bir vaqtning o'zida ham tinglaydi, ham ekranda yoki rasmlarda ko'radi. O'qitish

⁹ Balboni Le sfide di Babele, Torino:Gravinese, 2010.

faqat chet tilida olib borilib, tinglash, ko'rish, texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan. Metod ikkita bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Retseptiv ish.
2. Reproduktiv ish.

Retseptiv ishda o'quvchilar suhbatni chet tilida ikki, uch marta tinglaydi, ko'radi. Reproduktiv ishda esa o'quvchi suhbatni ovozsiz ko'radi, so'zlovchining o'rniga gapiradi, qaytaradi. So'ngida esa o'quvchilar uni kengaytiradilar.

XVII asrning ikkinchi yarmida rus olimi Buslaev tomonidan asos solingan taqqoslash metodida esa ikkita yo'nalish mavjud edi. Birinchisi ongli taqqoslash bo'lsa, ikkinchisi ongli amaliy, ongli kommunikativ metod hisoblanadi. Til materiallari taqqoslash orqali o'rgatiladi, aktiv, passiv til materiallari chegaralanadi. Ta'lim mazmuni til shakli bilan bog'lanadi va nutq faoliyatining hamma turlari bir vaqtning o'zida o'rgatiladi, rivojlantiriladi.

XX asrning 60 – yillariga kelib AQSH da yana bir til o'qitish metodi rivojlana boshladi. Bu metodning nomi gumanistik metodi deb ataladi. Keyinchalik 70 – yillarga kelib bu metod Italiya oliy o'quv yurtlarida ham qo'llanila boshlandi. Bu metodning afzalliklari shundan iboratki, dars jarayoni asosan talabalar tomonidan olib boriladi. O'qituvchi dars davomida juda ham kam gapiradi. Talabalarni rag'batlantirib turish, ular bilan yaxshi muomalada bo'lish, tabassum bilan ularni bilim olishga da'vat qilish juda ham muhim sanaladi. Gumanistik metodlar asosan uch turga bo'linadi:

1. To'liq javob berish orqali til o'rgatish metodi (Total Physical Response). Tilshunos Asher tomonidan 60 – yillarning o'rtalarida kiritilgan bo'lib, bunda talabalarga o'qituvchi tomonidan tartib asosida oldin oddiy keyin qiyinroq mashqlar beriladi (masalan, Kitobni olib kel. Kitobni olib kel va joyiga qo'y. Kitobni olib kel va joyiga qo'y toki boshqalar ham o'qisin). Bunday mashqlarni bajarish davomida talabalar tartib asosida fap tuzayotganlarida o'zlari bilmagan holda tilni ishlatadilar va shu bilan birga yangi so'zlarni ham o'rgana boshlaydilar.

2. Guruh holida chet tilini o'rgatish metodi (Community Language learning).⁶⁰ – yillarning oxirida Kurran tomonidan kiritilgan metod hisoblanadi. Kurran o'z faoliyatini psixologiya yo'nalishidan boshlagan bo'lsa – da, lekin keyinchalik ta'lim sohasida ish olib boradi. Bu metod psixoterapevtik metod deb ham ataladi. Chunki, unda o'qituvchi va talaba munosabatlari xuddi psixoterapevt va mijoz munosabatlariga taqlid qilinadi. O'qituvchi faqatgina bir maslahatchi bo'lib, o'rganish jarayonidan tashqarida turadi. Har bir talaba bilan uning fe'l atvori va tilni qabul qilish qobiliyatini inobatga olgan holda muomalada bo'ladi. Til o'qitishning eng asosiy vositasi mehr – muhabbat va chin ko'ngildan qilinadigan mehnat hisoblanadi.
3. Sokin yo'l (Silent Way) orqali o'qitish metodi. Pedagog Gattenyo tomonidan kiritilgan bu metod ko'pincha matematika faniga to'g'ri keladi. Chunki, o'qituvchi talabalarga mavzuni yoritib beruvchi turli xil modellar va adabiyotlar beradi. Keyin umuman dars jarayoniga aralashmaydi, jim, sokin turadi. Talabalar mustaqil ravishda bu modellarni ko'rib chiqib, har xil vaziyatlarda uni qo'llashadi. O'qituvchi faqat har xil tana harakatlari va jestlar orqaligina talabalarga ko'rsatmalar beradi.¹⁰

Bob I ga xulosa

Bob I da biz chet tillarini o'qitish bo'yicha eng ko'p qo'llanilgan metodlarni ko'rib chiqdik. Bu metodlarni bir – biriga yaqin xususiyatlariga qarab to'rtta guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Deduktiv metodlar: Grammatik – tarjima metodi, reading method. Chunki bu metodlarda o'qituvchi asosiy o'rinda turadi va talabalar o'qituvchiga bog'langan holda tilni o'rganishadi. Mavzu ham, uni mustahkamlash va amalda qo'llash jarayonlari ham o'qituvchi tomonidan boshqariladi.
2. Induktiv metodlar: to'g'ri metod, audio – lingval metod, audio – visual metod. Bu metodlardagi umumiylik shundan iboratki, o'qituvchi yangi

¹⁰ Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition, Oxford: Pergamon 1983.

mavzuni tushuntiradi xolos, qolgan amaliy jarayonlar talabalarning o'zlari tomonidan bajariladi.

3. Gumanistik metodlar: Krashenning tabiiy metodi, to'liq javob berish orqali til o'rgatish metodi, guruh holida chet tilini o'qitish metodi va sokin yo'l bilan til o'qitish metodi.
4. Komunikativ metodlar.

Metodlarni tasniflashda har bir tilshunos yoki metodist o'z uslubiga ega. Masalan I.V. Rahmonov va Lyaxovitskiylarning fikricha chet tillarini namoyish qilish, tushuntirish va mashq ishlatish yoki amaliy ishlarni tashkil qilish metodlari orqali o'rgatish mumkin.

R.K. Minyar – Beloruchev esa ozgina boshqacha tarzda til o'qitish metodlarini tushuntirish, ko'rsatish va mustahkamlash metodlariga bo'ladi. I.L. Bim o'rgatish metodlarini tasniflar ekan, ularni ko'rsatish, tushuntirish, mashq bajartirish, malakalarni amalda qo'llash kabi turlarga bo'ladi.

B.I. Pasov va I.M. Mahmudovlarning asarlarida ularning soni yanada ko'paytiriladi va tushuntirish, ko'rgazmali tushuntirish, reproduktiv, muammoli o'qitish, evristik suhbat, ilmiy izlanish metodlariga ajratiladi.

BOB II

CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASI FANINING GLOTTODIDAKTIKADAGI O'RNI VA RIVOJI

Italyan tilining o'qitish metodikasi bilan hozirgi paytda til o'qitish muammolari bilan ko'proq glottodidaktika fani shug'ullanmoqda. Glottodidaktika so'zining kelib chiqishini qarab chiqadigan bo'lsak, bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "glott" - bu odamning tovush hosil qiluvchi tana a'zosi. Bundan ko'rinib turibdiki, glottodidaktika fani bu tilni o'qitish uchun juda ham zarur fan hisoblanadi. Italiyada 1994 – yilda glottodidaktika bo'yicha ko'pgina adabiyotlar chop etila boshlandi va 1995 – yilga kelib italyan tilining glottodidaktikasi o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqdi.

A.Silibertining "Glottodidaktikaning o'quv qo'llanmasi (Manuale di glottodidaktika)", G.Freddining "Glottodidaktika: asoslar, metodlar va uslublar (Glottodidattica: fondamenti. Metodi e tecniche)" va G.Porchellining "Glottodidaktikaning prinsiplari (Principi di glottodidattica)" kabi adabiyotlar italyan glottodidaktikasining birinchi namunalari sanaladi.

Odatda barcha dunyo fanlari ikki turga bo'linadi: nazariy va amaliy fanlar. Nazariy fanlar asosida biron – bir muammoning o'ziga xos xususiyatlari yotadi. Masalan, tilshunoslik fani tillarning kelib chiqishi, turlari va hokazolarni o'rganadi yoki biologiya fanini oladigan bo'lsak, u barcha tirik organizmlarning evolutsiyasi, xususiyatlarini o'rganadi. Aksincha, amaliy fanlar aynan biron – bir muammoni hal qilishga harakat qiladi. Glottodidaktika ham amaliy fan hisblanib, tillarning o'rganilish jarayonini izchillik bilan o'rganadi. Boshqa fanlardan farqli o'laroq o'z ichiga to'rtta yo'nalish asosida turli xil fanlarni oladi:

1. Nutq va kommunikatsiyani o'rganuvchi fanlar.
2. Ta'lim – tarbiyani shakllantirish bilan shug'ullanuvchi fanlar.
3. Psixologik fanlar.
4. Madaniy va sotsial jarayonlarni o'rganuvchi fanlar.¹¹

¹¹ Balboni P.E., Le sfide di Babele, Torino: Grapiesse, 2010.

Birinchi nutq va komunikatsiya yo'nalishini oladigan bo'lsak, bunda so'zlashuv tili va so'zlashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, til va jamiyat hamda sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning o'zaro aloqalari, verbal va noverbal tillar, komunikativ bilimlarning o'rgatilishi muhimdir.

Ikkinchi ta'lim – tarbiyani shakllantiruvchi fanlarda esa har bir o'qituvchi yoki pedagog qaysi fanni o'qitishidan qat'i nazar, unda birinchi navbatda umumiy pedagogika, didaktik metodika va didaktik texnologiyalar bo'yicha bilim bo'lishi shart.

Uchinchi psixologik fanlar bo'yicha esa asosiy e'tibor nevrolingvistika va psixolingvistikaga qaratiladi. Chunki, til o'rganish jarayonida bosh miyaning faoliyati va funksiyalari hamda talabalarning bu jarayonda aqliy faoliyati qay darajada bo'lishi muhimdir. Bu fanlardan tashqari, psixopedagogika va psixodidaktika fanlari orqali ham ta'limni rivojlantirishda ko'p yutuqlarga erishilmoqda.

To'rtinchi madaniy va sotsial jarayonlarni o'rganuvchi fanlarning muhimligi shundan iboratki, har bir til o'qitilar ekan, yangi bir madaniyat ham til bilan birga o'rgatiladi. Bunda antropologiya, madaniyatshunoslik va mamlakatshunoslik fanlari hamda ularning til bilan aloqasi ko'rib chiqiladi. Bu to't yo'nalish umumiy, bir butun bo'lgan holda glottodidaktika fanini tashkil qiladilar.

Glottodidaktika jarayonining sub'yektlari: bir talaba yoki bir guruh talabalar.

Glottodidaktika jarayonining ob'yektlari: milliy tillar, ikkinchi til va chet tillari.

Glottodidaktika jarayonining "aktyor"lari asosan ikkita: talaba (lar) va o'qituvchi.¹²

Biron – bir chet tilini o'rganayotgan talaba haqida nima deyishimiz mumkin? Glottodidaktikadagi talaba tilni majburiy yoki birovning qistovi bilan emas, balki o'z xohish – istagi va unga yoqqanligi uchun ham o'rganadi. Talaba

¹² Titone R. Glottodidattica: un profilo storico, Bergamo: Minerva Italica, 1982.

degani bilim olishni xoxlaydigan shaxs bilim olishga majbur bo'lgan shaxs emas. Har bir talabaning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi uchta sabab asosida yuz berarkan:

1. Majburlik asosida. Bunday holatda til hech qachon yaxshi o'rganilmaydi. Chunki, talaba barcha bilib olgan narsalarini qisqa vaqt ichida xotirasida saqlaydi va ma'lum vaqt o'ygandan keyin unutib yuboradi. Lekin uy ishi va yozma ishlarda yaxshi natijalar ko'rsatadi, ammo bu ham vaqtincha bo'ladi.
2. Muhtojlik sezganida. Talaba bunday holatda o'zining bilim darajasidan qoniqqan kundan boshlab bilim olish, o'rganish jarayonini tamoman to'xtatadi.
3. Biron – bir tilni yoqtirgan, unga “oshiq” bo'lib qolgan holatda til o'rganish. Bu chet tilini eng tez o'rganish mumkin bo'lgan vaziyat. Lekin agarda yomon natijalarga erishilsa yoki xatolarga ko'p yo'l qo'yilsa, xohish – istak ham asta – sekin yo'qolib ketishi mumkin. Shuning uchun ham talaba xatolarga yo'l qo'ysa, o'qituvchi o'z vaqtida ularni tuzatib. Xatolar orqali biron – bir narsa o'rganilishini (errare e' umano) talabaga yetkaza olishi kerak. Ayniqsa, til o'rganish jarayoni xatolarga yo'l qo'yish majburiy bo'lgan jarayon hisoblanadi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, talabalardagi zavq, xohish – istakni so'ndirmaslik uchun o'qituvchi imkon darajasida darsni har xil uslubda olib borishi kerak.


“Dunyo ham go'zal o'zining o'zgarish va har xilligi bilan” deya ta'kidlaydi Paolo Ernesto Balboni. Har bir darsda uslub bilan birga o'quv qo'llanmalarini ham, darsni so'rash va tushuntirish jarayonini ham o'zgartirib turish kerak. Chunki, har kuni bir xil mashqlarni bajarish, bir xil jarayoni boshdan kechirish talabalarda zavqlanishning o'rniga zerikishni olib keladi.

O'zgarishlardan tashqari darsda yangiliklar ham bo'lib turishi kerak. Buni telenamoyishlar, har xil mashqlar, o'yinlar bilan amalga oshirish mumkin. Darsni olib borish rejasi ham oldindan yaxshi tayyorlangan hamda grammatik qoidalar kitoblarda mavjud, eski jadvallar asosida emas, balki soddaroq va qiziqarliroq tarzda tushuntirish kerak.

2.1. Paolo Ernesto Balboni va uning glottodidaktikadagi tadqiqotlari

Italiyan tilining o'qitish metodikasi bilan eng ko'p shug'ullangan metodistlardan biri Paolo Ernesto Balboni hisoblanadi. 1948 – yil Italiyaning Tosko – Emiliano shahrida dehqonlar oilasida tug'ilgan Balbonining yoshligi Lotin Amerikasi davlatlari bo'lmish Argentina va Chilida o'tadi. 1971 – yili oilasi bilan Italiyaga qaytib kelgach, Venetsiya universitetining ingliz tili filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. Universitetni tugatgach shu yerning o'zida ishlay boshlaydi. Undan keyin Sienaning chet elliklar uchun universitetida professor bo'lib ishlaydi. U italyan tilshunosi bo'lish bilan birga chet tillarini o'qitish bo'yicha bir nechta kitoblarning muallifi hamdir.

Asarlari: “Italiyada ta'lim- tarbiyaning tarixi (Storia dell'educazione in Italia (2009))”, “Til o'qitish (Fare educazione linguistica)”, “Italiyan tilining dunyodagi o'рни, Butun dunyoda italyan tilining o'qitish metodlari (Metodi dell'insegnamento dell'italiano nel mondo”. Hozirda Venetsiya universitetining rektori. Boshqa glottodidaktika fanining tadqiqotchilaridan farqli o'laroq u chet tillarini o'qitishda ko'proq an'anaviy taraflama yondashadi va ayniqsa sintez, analiz, til o'rganish uchun turtki bo'ladigan sabablar va asoslarga e'tiborni qaratadi. Bir qator ilmiy ishlar, nazariyalar va kitoblarning muallifi P. Balboni chet tillarini o'qitish bo'yicha juda ko'p yangiliklar kiritadi. Birinchi navbatda ta'lim jarayoni bo'yicha fikr bildirib, bu jarayonning ishtirokchilari bo'lmish o'qituvchi, talaba va o'rganilayotgan fanni uchburchak tarzda talqin etadi.



P.Balboni chet tilini o'qitish – bu til orqali ma'lum ma'noda tarbiyalash hisoblanadi deb o'ylaydi. Bu jarayonda uch yo'nalish bo'yicha tarbiyalanadi va ta'lim beriladi:

1. Madaniylashish jarayoni. Bunda italyan tili o'qitilayotgan mamlakatlarning madaniyatini, urf – odatlarini bilgan holda ularni hurmat qilish va buning natijasida italyan madaniyatiga boshqa nuqtai nazardan qarashga imkon beradi.

2. Ijtimoiylashish jarayoni. Chet tilini bilgan shaxs uchun boshqa jamiyat a'zolari bilan muloqot qilish imkoniyati tug'iladi. Bir yoki undan ortiq tilni bilganlar uchun hamkasblar, do'stlarning soni ko'payib, butun dunyo eshiklari uning oldida ochiladi.

3. Shaxsiy tajribaning oshishi. Bunda dunyoning va boshqalarning tajribalaridan boxabar bo'lgan har bir inson shaxsiy hayotida ham to'g'ri rejalar tuza oladi.

“Dunyo bir xil bo'lmagani kabi insonlar ham bir xil emas albatta” deya ta'kidlaydi P.Balboni. Shu jumladan, talabalar ham qobiliyatli va unchalik qobiliyatli bo'lmasliklari mumkin. Gardner (1993) talabalardagi til o'rganish qobiliyatini uch turga bo'ladi: ko'rish orqali tez esda saqlab qoladigan talabalar, eshitish orqali esda saqlaydigan va uchinchi imo – ishoralar orqali tez o'rganadigan talabalar. Uchinchisida tana a'zolari ham muhim rol o'ynaydi.

Psixolog Gestald esa talabalarni “analitik” va “sinkretik” turlarga bo'ladi. Analitiklar hamma bilan ham kelisha olmaydigan, tortinchoq bo'lsalar, sinkretiklar esa hamma vaziyatdan tez chiqa oladigan, xushchaqchaq talabalar hisoblanadi. Talaba qachon chet tillari bo'yicha bilimdon deb atalishi mumkin degan savolga P.Balboni javob berishga harakat qilib, bilimdon talabalarni tasniflab, quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi:

1. Ikkilanishlardan va shubxalardan qutulib, to'g'ri qaror qabul qila olish xususiyati. Bunday xususiyatli talabalar matn yoki chet tilidagi asarlarni o'qiyotganlarida biron – bir yangi so'z yoki ibora chiqib qolsa, umumiy ma'noga qarab tarjima qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Umuman hayotda ham shu kabi talabalar ko'p tushkunlikka tushishmaydi. Ular “o'ta e'tiborli, qat'iyatli va hamma

ishni vaqtida bajaruvchi talabalar”dan ham ko’ra tezroq chet tilini o’rgana oladilar.

2.Qoidalar yoki jadvallarga bog’lanib qolmasdan chet tilini faqat bir xil qoliplarga slogan holda ko’rmaslik xususiyati.Misol qilib aytadigan bo’lsak, Grammatik qoidalarga bog’lanib qolgan talabalarga “Quelqu’un nous a raconte’ une belle histoire” gapini tez takrorlashlari aytilsa, ular “Quelqu’un nous avons raconte’ une belle histoire” deb takrorlashadi.Chunki, fransuz tilidagi nousni ular faqat ega deb qabul qilishadi va avons yordamchi felini darrov uning orqasidan qo’yishadi.Lekin yuqoridagi gapda nous jo’nalish kelishigidagi olmosh hisoblanadi.

3. Oldindan ko’ra bilish qobiliyati.Bu qobiliyat ilmiy tilda pragmatic expectancy grammar deb ataladi.Bunday qobiliyatli talabalar berilgan matn, asar yoki boshqalarni tarjima qilishda hali material bilan tanishib chiqmasdan turib u haqida gipoteza qila oladilar hamda bu orqali tezroq tarjima qilib, qiziqishlari ham oshadi.Albatta gipoteza qilish ham har bir talabaning dunyoqarashiga va shaxsiy tajribasiga bog’liq holda amalga oshadi.S.Krashen ham talabalarda bunday qobiliyatning bo’lishini ijobiy baholaydi va shu orqali ko’p natijalarga erishilganini ta’kidlaydi.

4.Shaxsiy xatolardan to’g’ri xulosa chiqargan holda o’rganishda va bilim olishda davom etish.Bunday qobiliyatni amalda qo’llashda o’qituvchining ham o’rni muhim hisoblanadi.Talabaga o’z vaqtida berilgan ko’rsatma yoki tuzatish birinchi navbatda uning xotirasida uzoq muddat davomida saqlanib qoladi.

5. Birovning o’rniga o’zini qo’yib, uni tushuna olish qobiliyati.Ilmiy tilda bu empatia deb ataladi.Bu qobiliyat asosan chet tilini o’rganish jarayonida emas, balki uni ishlatish uchun ko’p qo’l keladi.Bunday qobiliyatli talabalar xoh o’z Vatanida bo’lsin, xoh chet elda har qanday vaziyatni tez baholay oladi, insonlardagi ijobiy va salbiy taraflarni tez payqaydi hamda shunga qarab ish yuritadi.¹³

¹³ Balboni P.E. Dizionario di glottodidattica, Perugia: Guerra, 1999.

Endi bir guruh talabalarda til o'rganish jarayoniga P.Balbonining fikrlarini ko'rib chiqamiz. Bir guruh talabalar oldin "do'stlar" yoki "kursdoshlar" deb atalardi. Ammo ularni qiziqishlari, kasbi va maqsadlari o'xshash bo'lgani uchun "kasbdoshlar" deb atash bugungi kunda to'g'riroq deb hisoblanmoqda. Har bir talaba talaba bo'lishdan tashqari kimningdir kasbdoshi yoki o'qituvchisi ham bo'lishi mumkin. Talabalarni guruhlariga bo'lib ular bilan ish olib borish yoki umuman har bir muammoni hal qilishga guruhlar tashkil qilish birinchi marta AQSH da rivojlangan. Masalan, marketing muammolarini hal qilish yoki tashkilotlar, firmalar uchun prezentatsiya tayyorlash uchun guruhlar tashkil qilingan. Biroq, guruh bo'lib ishlashning ham o'ziga yarasha salbiy yoki ijobiy taraflari bo'lishi mumkin.

Ijobiy tarafi shundan iboratki, o'zaro hamkorlikda ishlab, bir talaba boshqa talabadan bilmagan narsalarini bilib olishi mumkin. Lekin, bir talabaning qilgan xatosi kasbdoshi tomonidan to'g'ri deb qabul qilinishi mumkin. Xatolarga qayta va qayta yo'l qo'yish yoki fanlardan yiqilish hech bir talabaga yoqmaydi. Odatda talabalar aybni o'qituvchiga qo'yishni yoqtirishadi. Ammo, guruh bo'lib ishlagan taqdirda bir – birlariga o'z ayblarini qo'yishlari mumkin. Ayniqsa, unchalik faol bo'lmagan yoki qabul qilishi sust bo'lgan talabalar aybdor bo'lib qolishlari mumkin.

Yuqorida Balbonining glottodidaktika jarayonidagi birinchi o'rindagi aktyor bo'lmish talabaning qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini ko'rib chiqdik. Endi bu jarayonning yana bir aktyori o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Bir necha asr oldin chet tili o'qituvchisi so'zini Italiyada De Sanktis va Gentilelar ham ma'naviy ham diniy bilimlar sari yo'l boshlovchi deb ta'rif berishgan. Qari yoki katta yoshli lotin tili o'qituvchisi tilni yaxshi bilishi va faqatgina uni o'qitishi kerak bo'lgan xolos. Umuman chet tili o'qituvchisiga yetuk mutaxassis yoki pedagog sifatida qaralmagan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu fikrlarning xato ekanligi va o'qituvchi pedagogik fanlarning mutaxassisi

bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Shu bilan birga o'qituvchiga yangi ta'riflar berila boshlandi.

Dubin va Olshteynlarning fikricha o'qituvchi har qanday qiyinchilikni ham osonlashtiruvchi (facilitatore) shaxsdir. Kurranning fikricha u maslahatchi (consigliere), Gattenyo, Krashen va Terrellarning fikricha yo'l ko'rsatuvchi (maiuta). 90 – yillardan boshlab katta yoshlilarning ta'lim olishida va masofaviy ta'limda himoyachi (tutor) deya ta'kidlandi.

O'qituvchiga hatto rejissor sifatida ham hozirda qaralyapti. Balbonining fikricha chet tili o'qituvchisi asosan quyidagi beshta xususiyatga ega bo'lishi kerak:

1. Jamoada, guruhda ishlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Tabiiyki, har bir o'qituvchi qayerda ishlashidan qat'iy nazar, biron – bir jamoada yoki guruhda ish olib boradi. Bilim berish, o'qitishdan tashqari o'zi ishlayotgan davlat muassasasining ma'naviy – ma'rifiy, tashkiliy ishlarida ham faol qatnashishi kerak. Kasbdoshlari jamoasida o'z o'rniga ega bo'lgan, ular bilan yaxshi munosabatda bo'lgan har bir o'qituvchi albatta talabalar bilan ham yaxshi munosabatlarga erisha oladi.
2. O'zgarishlar va rivojlanishlarga moyillik xususiyati. Ko'z o'ngimizda har kuni jamiyat, ijtimoiy va madaniy hayotimiz kundan – kunga o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Shunday ekan, ta'lim – tarbiya sohasida ham har bir pedagog umumiy o'zgarishlarga qarab o'zining ish faoliyatini olib borishi kerak. Eskirib ketgan, talabalar uchun umuman qiziq bo'lmagan metodlarning o'rniga yangilarini qo'llay bilish zarur.
3. Shaxsiy yoki o'zgalarning tajribalarini to'play olish xususiyati. Oldingi muammolarning qanday qilib hal qilinganini bilgan holda yangi muammolarni hal qilish uchun yangi usullar, metodlarni faqatgina o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, ularni yarata olish ham kerak.
4. Boshqara olish xususiyati. O'qituvchi ko'pincha auditoriyada, sinfda ish olib boradi. Shuning uchun ham ko'pchilikning diqqat e'tiborini darsga, mavzuga qarata bilish uchun unda qobiliyat bo'lishi muhimdir.

5. Hamkorlik qila olish qobiliyati. Bunda u ikki mamlakat o'rtasidagi "ko'prik" vazifasini ham bajaradi. Masalan, italyan tilini o'qitayotgan o'qituvchilarni oladigan bo'lsak, ular O'zbekiston va Italiya o'rtasida ta'lim sohasida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga, talabalarning malakasini oshirish uchun chet el davlat grantlarini olib berishga harakat qilishi kerak. Xalqaro loyihalarda qatnashishi, o'z mamlakatida o'rgangan bilimlarini boshqa mamlakatlarda ham qo'llay bilishi lozim.¹⁴

Glottodidaktika jarayonining uchinchi "aktyor" i o'rganilayotgan til hisoblanadi. Tilning glottodidaktika jarayonidagi ahamiyati glottodidaktiklar tomonidan atroflicha talqin etilgan:

1. Maqsadlarga erishishning bir vositasi.
2. Turli xil mamlakat va jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish vositasi. Sotsiolingvistika fanining o'rni bunda ham muhim.
3. Insonlarning jamiyatning qay bir qatlamiga taalluqli ekanligini namoyon qilish xususiyati. Bu qatlamlar geografik jihatdan (shevalarga xos so'zlar), sotsial jihatdan (jargon, argo so'zlar) yoki kasbga qarab ajratilishi mumkin. Bu qatlamlarning tili mikrotillar deb ham atalib, bu ham sotsiolingvistika fani tomonidan o'rganiladi.
4. Til – bu sistema. Ya'ni til sistemaga solingan turli xil shakllardan iborat. Fonologiya, grafema, morfologiya, sintaksis va boshqalar har bir chet tilining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. O'qituvchilardan ham, talabalardan ham birinchi navbatda til shakllari va uning grammatikasini mukammal o'rganish talab qilinadi.
5. Har bir xalq, millatning madaniy va ma'naviy boyliklarini ifodalashning yo'li. Til orqali madaniy boyliklar avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. Antropolingvistika va etnolingvistika fanlari tilning aynan shu xususiyatlarini o'rganuvchi fanlardir.
6. Fikrni ifodalash vositasi. Lekin bu tushuncha har doim ham o'zini oqlamaydi. Til ba'zi paytlarda o'y – fikrlarimiz va g'oyalarimizni "qafasga"

¹⁴ Borello E. La storia della glottodidattica, Chieri: TTS, 1996.

solib qo'yishi ham mumkin. Masalan, sahroda yashovchi aholi faqatgina ikkita rangni nomlay olarkan: quruqlik va namlik bilan bog'liq nomlarni. Biz esa ranglarning juda ko'p turlarini nomlay olishimiz mumkin. Shimoliy Antarktida xalqi hisoblangan eskimoslar qorning faqatgina ikki turini ajrata oladigan boshqa xalqlardan farqli o'laroq qorning o'nlab turlarini nomlay olar ekan.

P. Balboni inson hayoti davomida bilgan va keyinroq o'rganadigan tillarini to'rtga ajratadi: chet tillari, ikkinchi tillar, etnik tillar va frank tillari.

Chet tillari deganda shunday tillar nazarda tutiladiki, ular ko'pincha bilim dargohlarida va oliy o'quv yurtlarida o'rgatiladi. Biron – bir o'zbekistonlik italyan tilini O'zbekistonda o'rgansa, bu til uning uchun chet tili hisoblanishi tabiiy. Ikkinchi til esa bilim dargohlaridan, oliy o'quv yurtlaridan tashqarida ham o'rgatilishi mumkin. Chet tilidan farqli o'laroq ikkinchi til aynan o'sha til gaplashiladigan mamlakatda o'rganilishi kerak. Biror o'zbekistonlik italyan tilini Italiyaga borib o'rgansa, uning uchun bu til ikkinchi til hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, chet tiliga nisbatan ikkinchi til tezroq o'rganiladi. Chunki, amaliy jihatdan til ko'p ishlatiladi.

Etnik tillar esa har bir shaxs yashab, ulg'aygan bir oilaning yoki bir jamiyatning o'ziga xos bo'lgan tili hisoblanadi. Lekin bu tilni davlat tili deb ta'riflasak, ozgina adashgan bo'lamiz. AQSH da u tillar ko'pincha familiy language yoki community language deb ham ataladi.

Frank tili maqomiga esa 2000 yil oldin lotin tili ega bo'lgan bo'lsa, hozirda uning o'rnini tabiiyki ingliz tili egallagan. Frank tili butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan va o'rganiladigan hamda xalqaro til darajasiga ko'tarila olgan tildir. Aynan shu sababdan Buyuk Britaniya va Amerika madaniyati va ingliz tili o'qitish metodikasiga bo'lgan munosabat ham yuqori darajada desak adashmagan bo'lamiz.

Italyan tilini chet elliklarga o'qitish masalalari bilan shug'ullanuvchi yana bir metodist Sienaning chet elliklar uchun universitetining professori Pieranjela Diadori hisoblanadi. Bir qator kitoblar muallifi Diadori tilni tez o'rganish uchun

eng muhimi matnlar tarjimasi va tahlili deb o'ylaydi. 2001 – yilda chiqargan “Chet elliklarga italyan tilini o'qitish” nomli asarida shu haqda ta'kidlab o'tadi.

2.2. Glottodidaktikada yangi innovatsion ped texnologiyalarning roli

O'ta zehnli va dono imperator hamda faylasuf Konfutsiy shunday degan ekan:

Eshitsam, esdan chiqaraman.

Ko'rsam, eslab qolaman.

Bajarsam, tushunaman.¹⁵

Bir necha asrlar oldin aytilgan bu dono fikrlar haligacha ta'lim – tarbiya sohasida, ayniqsa, til o'qitish muammolarining yechimini topishda juda qo'l kelmoqda. Talabalarga faqat aytish yoki ko'rsatish bilan hech qachon cheklanib qolmaslik kerak. Aksincha, dars davomida ular eshitish va ko'rishdan ham ko'proq mustaqil tarzda ishlashlari, ta'lim jarayonining kuzatuvchilari emas, balki asosiy ashtirokchilari bo'lishlari muhimdir. O'qituvchi dars davomida qancha ko'p gapirsa, talabalar shuncha kam gapirishadi yoki o'qituvchi chin dildan harakat qilsa – yu, lekin talabalar hech qanday faoliyat olib bormasalar, unda barcha sa'y – harakatlar bekor hisoblanadi. Darsning bosh ishtirokchisi o'qituvchining o'zi bo'lib qoladi va talabalar ikkinchi darajali ishtirokchilarga aylanib qoladi.

Glottodidaktika ham bugungi kunda Konfutsiyning fikrini ma'qullagan holda til o'qitish jarayonida talabalarning ko'proq ishtirokini talab etadi. Chunki, fanimiz o'zining uslub va metodlarini ishlab chiqar ekan antik va qadimiy o'qitish usullarini foydali deb biladi va ularni zamonaviylashtirgan holda tadbqiq etadi. Shulardan bir nechtasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Biri qadimgi Afina va Rimda qo'llanilgan o'qitish usuli bo'lib, Gomerining “Illiada” si va yoki Sitseronning nutqlari talabalarga faylasuf o'qituvchilar (maestro) tomonidan o'qishga berilgan. O'quvchilarning mustaqil tarzda o'qib, keyin asar ustida fikr yuritib, mulohazalar qilishlari ham muhim bo'lgan va o'quvchilarni tanqidiy baholash ular uchun juda ham foydali deb qaralgan.

¹⁵ Balboni P.E. Le sfide di Babele, Torino: Gravinese, 2010.

Antik metodlarning yana biri diniy bilimlar bilan bog'liq bo'lib, unda Muqaddas yozuvlarni o'qish, ularni tushuntirish va o'quvchilarga tub ma'nosini yetkazish rohib o'qituvchining vazifasi bo'lgan. O'quvchilar ham o'z navbatida o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirishgan. Aytib o'tish joizki, ikkala usulda ham bir nechta tillar oldin yozib qoldirilgan asarlarni o'qish orqali to'g'ri, imlo xatolarisiz yozish qonun – qoidalari ham o'rganilgan.

Lectio ya'ni o'qish orqali bilimlarga ega bo'lish asosan kattolik, yahudiy va islom dinlarining ta'limotlarida mavjud bo'lgan. Glottodidaktikada albatta hozirda muqaddas yozuvlarni tushuntiruvchi rohiblar – u faylasuflarga hech ham ehtiyoj yo'q. Lekin har xil mavzulardagi matnlarni o'qish hozirgacha chet tilini o'rganish uchun juda ham foydalidir. Matn o'qib bo'lingach, uning qisqacha mazmuni so'ralsa, talabalarda ko'proq umumiy axborotlardan eng asosiylariga diqqat e'tiborni qaratish va chet tilida gapirish hamda o'zi mustaqil holda xoxlagan mavzuda matn tuza olish qobiliyati paydo bo'ladi. Ikkinchidan, matn mavzusi va dolzarbligi bo'yicha atroflicha ta'rif berish hamda muhokama qilish orqali chet tilida gapirishga xalaqit beruvchi to'siqlar olib tashlanadi. Uchinchidan, so'zma – so'z tarjima qilishning o'rniga ko'proq fikr yuritish, o'z ona tili bilan solishtirish orqali tarjima qilish ham o'rganiladi.

Glottodidaktika fani tilning barcha tarkibiy qismlarini o'qitish uchun o'zining glottotexnologiyalarini taklif qiladi. Grammatika, leksikologiya va hatto chet tili adabiyotini talabalarni qiziqtirgan holda o'rgatish o'z navbatida o'qituvchidan talab qilinadi. Birinchi navbatda grammatikani oladigan bo'lsak, ko'pchilik talabalar uchun u juda ham zerikarli va qiyin tuyuladi. Lekin, til o'rganish jarayonini grammatikasiz tassavvur ham qila olmaymiz. Tilning boshqa qismlari va grammatikani o'qitish bu ikkita har xil kechadigan jarayonlardir. Bu jarayonni jadval tarzida ko'rib chiqishga harakat qilamiz

	Tilning boshqa qismlarini o'qitish bo'yicha	Tilning grammatikasini o'qitish bo'yicha

Kim?	Sub'yekt – talaba. Avval o'qituvchining bevosita yo'l boshlashi va keyinchalik o'zi mustaqil tarzda bilimlarga ega bo'luvchi talaba.	Sub'yekt – o'qituvchi. Har doim talabaning yo'l boshlovchisi va talaba to'ldirilishi kerak bo'lgan bo'sh jadvalday (tabula rasa).
Qachon?	Til qachonki ko'p ishlatilsa, talabalar imkon darajasida chet tilini dars paytida ham, darsdan tashqarida ham ko'p ishlatsalar, yaxshi o'rganiladi,	Grammatik qoidalarini yodlash, mashqlar orqali mavzuni mustahkamlash va takrorlash orqali yaxshi o'rganiladi.
Nima?	“Qoidalar” tilning o'rganilishi uchun muhim emas, balki tilning funksiyalarida uning mexanizmlari hisoblanadi.	Qoidalar juda ham muhim va ular tilni o'rganish jarayonida asosiy o'rinni egallaydi.
Nima uchun?	Talabalar “o'rganishni o'rganish “ orqali asta- sekinlik bilan tilni o'rganib, mustaqil, o'qituvchining ko'rsatmalarisiz ham bilim olishda davom etadilar.	Talabalar qoidalarini takrorlash, qayta ko'rib chiqish orqali grammatikani o'rganadilar.
Qayerda?	Til talabalar qanday tassavvur qilsa, xuddi shunday tarzda sistema yoki jadvallarga solgan holda o'rganiladi.	Grammatik qoidalar avvaldan mavjud, tayyor jadvallarda o'qituvchi tomonidan beriladi va bu bilan vaqt ham tejiladi.

Tilshunos Otto Jespersen grammatikani ham talabalarda qiziqish uyg'otib o'rgatish mumkinligini ta'kidlab, til o'rganish jarayonida talabaning “grammatika yaratuvchisiga” aylanishi kerakligini aytib o'tadi. Ularga faqat tayyor jadvallar yoki sxemalar berilmasligi kerak. Tayyor qoidalarini o'zlari ham mustaqil tarzda

jadvallarga sola bilishlari kerak va shunda qoidalar ham esda saqlanib qoladi. Glottodidaktika bizga qoidalarni yangi mavzuni o'rganib, uni uzoq vaqt esda saqlab qolishimiz uchun qaysi jihatlar muhimligini tushuntirishga harakat qiladi:

1. Individuallashtirish. Masalan, biron – bir italyan tilidagi zamon Futuro semplice (oddiy kelasi zamon) mavzusi o'tildi deylik. O'qituvchi shu zamon ishlatilgan matnlarni talabalarga beradi va ular matndan kelasi zamon fe'llarini topib, ishlatilish sabablarini tushuntirishlari kerak bo'ladi.
2. Yaratish. Bunda talabalar alohida yoki guruhlariga ajralgan holda mavzuga oid gipotezalar qiladilar. Dialog, monolog va boshqa shu kabilarni tuzishlari vazifa qilib beriladi.
3. Mustahkamlash. Har xil o'yinlar yoki guruh ichida mavzu bo'yicha musobaqalar, o'yinlar bo'lishi mumkin.
4. To'ldirish. Har xil kitoblardan mashqlar ishlash yoki davra suhbatlari ham bo'lishi mumkin.

Bu yuqoridagi fikrlar grammatikaning ahamiyati va o'qitilishi haqida edi. Lekin ba'zi bir metodistlar tilni o'rganishda grammatikadan ham ko'proq har bir talabaning shaxsiy lug'at boyligi, leksikasi muhimroq deb o'ylaydilar. S. Krashenning fikricha ham chet tilidagi so'zlarni ko'proq bilish foydaliroq bo'lib, "sayohat qilganda har bir kishiga grammatik qoidalar to'la kitoblar emas, aksincha lug'atlar ko'proq kerak bo'ladi va hamma sayohatchilar asosan lug'atlar ko'tarib yurishadi" deydi.

Yana bir italyan metodisti Serra Borneto o'zining faoliyatini leksik metoddan boshlaydi (1998). Undan oldinroq 90 – yillarning boshida amerikalik metodistlar tomonidan Lexical Approach (leksik metod) taklif qilingan edi. Camilla Bettoni esa bu metodda eng asosiysi kuchli xotira ekanini ta'kidlaydi. Bu metodda ham albatta grammatikaga murojaat qilishga majburlarmiz. Ayniqsa, so'zlarning yasalishi va qo'shimchalar bilan qay tarzda bog'lanishi muhimdir.

Italyan tilida eng ko'p uchraydigan ot yasovchi qo'shimchalar – ante, -ore, - aio, va - ita, - ezza kabi sifatdan ot yasovchi qo'shimchalarni o'z o'rnida qo'llay bilish uchun grammatikadan xabardor bo'lish kerak. Talabalarga chet tilidagi barcha so'zlarni o'rgatish har qanday grammatika yoki fonetikasi o'rgatishdan ham mushkulroq ishdir. Har bir tilda o'z lahjalari, shevalari borki, ular o'sha tilda gaplashuvchi xalqning madaniyatidan, adabiyotidan kelib chiqadi.¹⁶

Adabiyot ham har bir tilning muhim bo'lagi va tilni adabiyotsiz tassavvur qila olmaymiz. Adabiyot ma'lum ma'noda tilning yaratuvchisi, boyligi ham hisoblanadi. Glottodidaktika ham chet tillarini va ayniqsa italyan tilini o'qitishda adabiyotga katta e'tibor qaratadi. Italyan tilining adabiyoti ham juda go'zal va uzoq tarixga egaki, bu adabiyotning namunalaridan bahramand bo'lmaslikning hech ham iloji yo'q. Oxirgi paytlarda yoshlar nimaki izlamasalar yoki nimagaki qiziqmasalar darrov internet tomon yo'l oladilar. Minglab, yuzlab kitoblarning elektron variantlari internetdan topiladi. Kitob oqishning zavqi esa kundan – kunga pasayib bormoqda. Shuning uchun ham glottodidaktika adabiyotni o'qitishda talaba yoshlarni ko'proq kitob o'qishga jalb qilishga urinadi. Shundagina asarlar yoki she'rlar o'qish uchun oz bo'lsa ham zavq paydo bo'lishi mumkin.

O'quvchi talabalar asarlarni aynan kitobdan o'qiganida asarning ichiga kirib boradi va uning uchun yangi dunyo eshiklari ochilganday bo'ladi. Asar qahramonlarining ichki kechinmalarini his qila oladi, ular bilan birga yig'lab birga xursand bo'ladi. Hayotda ba'zilar adabiyotning shaydosi bo'lishadi. Lekin ba'zilar uchun u juda ham zerikarli tuyulishi mumkin. Biz to'rtinchi kurs talabalari ham o'z ped amaliyotimiz davomida institutimizning italyan tili fakultetining ikkinchi kurs talabalariga uyda o'qishidan dars o'tganimizda ulardan o'qiyotgan asarlari Alessandro Barikkoning "Ipak" nomli asari ularga yoqyaptimi yoki yo'qmi deb so'raganimizda, talabalardan aksariyati - "rostini aytsam menga yoqmadi" – deb javob berishdi. Biz buning sababi nimada

¹⁶ Eco U. Sulla Letteratura, Milano: Bompiani, 2002.

ekanligiga qiziqdik va ularga savollar bera boshladik. Ularning javoblaridan shuni bildikki, ularda adabiyotga nisbatan zavq – shavq yo'q va bundan tashqari til o'rganish uchun adabiyotning qanchalik muhimligini ular hali hanuz anglab yetmagan.

Yangi so'zlar, iboralar, maqollar umuman tilning asosiy boyligi uning adabiyotida namoyon bo'ladi. O'qituvchimiz boshchiligida ularga bularning hammasini tushuntirishga harakat qildik. Guruhdagi holat unchalik ko'p o'zgarmagan bo'lsa ham, lekin ozgina muddatdan so'ng o'zgarishlarning guvohi bo'ldik. Lekin adabiyotda ham shunchaki o'qish, tarjima qilish bilan cheklanib qolmaslik kerak. O'qish uchun asar tanlanayotganda asosan filmlari suratga olingan asarlar tanlanishi kerak. Asarlarning filmlarini ko'rmasdan turib ularni o'qish xuddi geografiya fanini xaritalarday olib borishday gap.

Shakespearening mashhur "Romeo va Julietta" romani nima uchun ko'pchilik tomonidan katta qiziqish bilan o'qiladi? Albatta, unga ishlangan film barchani birday qiziqtirgan. Italian adabiyoti durdonalarini ham ko'pchiligini filmlarda ko'rishimiz mumkin. Burt Lancaster va Marcello Mastroiani kabi mashhur rejissorlar asosan shu bilan shug'ullanishadi. Shunday ekan, adabiyot fani talabalar uchun eng qiziqarli va sevimli fanga aylanishiga harakat qilishimiz kerak.¹⁷

She'riy yo'l bilan yozilgan asarlar yoki she'rlarga keladigan bo'lsak, ularni ham hozirda ko'p qo'shiqchilar tomonidan kuylanganini ko'rishimiz mumkin. Aynan mana shu she'rlarni talabalarga eshittirish va she'rlar ularning o'zlari tomonidan ham kuylanishi kerak yoki shunchaki o'qilishi kerak. Adabiyot darslarini qiziqarli qilib o'tkazishda audio, video, televizor, kompyuter kabi texnik vositalarning o'rni muhimdir. O'qituvchi talabalarni turli xil metod va zamonaviy ped texnologiyalardan foydalangan holda o'qitar ekan, glottodidaktikada ularni to'g'ri va bilim darajalariga qarab adolatli tarzda baholash ham inobatga olinadi. Ko'pincha bu umumiy ko'rsatkich 100% ga qarab belgilanadi. Kimdadir 60% yoki yana boshqasida 50% bo'lishi

¹⁷ Balboni P.E Le sfide di Babele Torino:Gravinese, 2010.

mumkin. Asosiysi, o'qituvchining o'zi ham yuqori bilimga ega bo'lgan holda talabalarda mana shu foizlarni to'g'ri kuzata olishi va baholashi kerak.

Bundan tashqari, talabani guruhdagi boshqa talabalar bilan taqqoslagan holda ham baholash mumkin. Xoxlasak xoxlamasak baribir guruhda faol talabalar bilan birga nafaol, passiv talabalar ham uchraydi. Bunday talabalar o'zi bilan birga butun bir guruhni ham orqaga tortib ketishi mumkin. Bu holni oldini olish uchun ular bilan qo'shimcha darslar olib borgan ma'qul.

Yevropa Hamjamiyati tomonidan chet tillari bo'yicha talabalarning va o'qituvchilarning bilim darjalarini aniqlashda umumiy qoliplarga ega bo'lga sertifikat tashlik qilingan. Italyan tilining sertifikati CILS (Certificazione di Italiano come Lingua Straniera) deb nomlanuvchi sertifikat bo'lib, u italyan tilining chet tili sifatidagi sertifikati hisoblanadi. Bu sertifikat Sienaning chet elliklar uchun Universiteti qoshida tashkil etilgan bo'lib, bu CILS markazi ILTA (International Language Tasting Assosiation) va EALTA (European Assosiation for Language Tasting and Assessment) kabi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda o'z faoliyatini olib boradi. CILS olti pog'onadan iborat:

A 1 A 2 Bir – B 1 Ikki – B 2 Uch – C1 To'rt – C 2

Har bir pog'ona bir – birini takrorlamagan holda mukammallashib boraveradi va o'ziga xos tarzda bilim darajalarini belgilaydi. Bu pog'onalarining har birida besh yo'nalish bo'yicha bilimlar 20 balldan baholanadi:

1. Ascolto (eshitish orqali mashqlar bajarish).
2. Lettura (o'qish orqali).
3. Produzione scritta (yozma ish).
4. Produzione orale (o'gzaki ish).
5. Analisi delle strutture di Comunicazione (komunikativ strukturalarning tahlili).¹⁸

¹⁸ w.w.w.unistrasi.it

Bu sertifikatni olishning muhimligi shundaki, dunyoning xoxlagan burchagida italyan tili bo'yicha o'qish yoki ishga qabul qilinish mumkin. Italyan Universitetlariga qabul qilinish uchun eng kamida Ikki – B2 pog'onasiga ega bo'lish kerak. Shunda italyan tili bo'yicha imtixon topshirmasdan ham oliy o'quv yurtlariga kirish mumkin. Lekin barcha boshqa tillar bo'yicha mavjud sertifikatlar kabi CILS ning ham yaroqlilik muddati mavjud. Bitta sertifikat butun umrga yetmaydi albatta.

1990 – yillarda Yevropa Hamjamiyati tomonidan uzluksiz ta'lim ya'ni lifelong learning jarayoni ta'lim – tarbiya bo'yicha eng munosib ekanligi tan olindi. Bu oldingi bic et nunc (hozir va shu yerda) iborasining o'rnini bosgan so'zlardir. Chunki lifelong learning o'qish, o'qish va yana o'qishni bildiradi. Bundan tashqari, bizning o'zbek xalqimizda shunga o'xshash dono bir maqol bor:” Beshikdan qabrgacha ilm izla”. Inson hech qachon o'rgangan bilimlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chet tillarini o'rganayotgan talabalarning barchasi lifelong studentga aylanishi kerak.

2001 – yilga kelib Italiyada va butun dunyoda masofaviy ta'lim (distance learning) ning eng maqbul va qulay ta'lim usuli ekanligiga amin bo'lishdi. Internet atalmish cheksiz va chegarasiz ma'lumotlar dunyosi hayotimizning bir bo'lagiga aylanib qolgan bir davrda masofaviy ta'limda yutuqlarga erishilmoqda.

Birinchidan, chet mamlakatiga borish uchun kerak sarf - xarajatlar kamaytiriladi. Ikkinchidan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar neytral holda turadi. Uchinchidan, hayotimizda eng qimmatli hisoblangan vaqtimiz tejaladi. 2008 – yilda butun dunyo bo'ylab masofaviy ta'lim 9% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 – yilgacha 50% ni tashkil etishi kutilmoqda. XX asrning boshlarida hali Internet umuman bo'lmagan paytlarda ham masofaviy ta'lim ma'lum darajada mavjud bo'lgan. Tele va radio vositalari, CD disklar va audio kassetalar orqali ham ta'lim amalga oshirilgan. Rivojlangan, “murakab” jamiyatda yashar ekanmiz, masofaviy ta'limning bergan imkoniyatlaridan bahramand bo'lmay ilojimiz yo'q.

2.3. Komunikativ metodining glottodidaktika fanidagi o'rni

50 – yillarning oxirida siyosiy va iqtisodiy rivojlanishlar, mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi bilan Yevropa davlatlarida va dunyoning boshqa burchaklarida ham sayohat qilish, o'zaro hamkorlikning kengayishi natijasida tillarning ham komunikativlik xususiyati jihatdan qiymati oshib ketdi va shu bilan birga komunikativ metodlari ham yuzaga kela boshladi. Bu metodlar chet tillarini o'qitish bo'yicha hozirgacha birinchi o'rinda turadi.

Antropolingvistika va sotsiolingvistikaga asoslangan holda komunikativ metodlari situatsional va funksional komunikativ metodlariga ajratiladi. Situatsional komunikativ metodida sotsiolingvistikaning ta'siri sezilarli darajada bo'lib, birinchi o'rinda turli xil vaziyatlar orqali tilni o'rgatishga harakat qilinadi. Masalan, chet tillarini o'qitish jarayonida so'zlarni yodlash, qoidalarini takrorlash bilan emas, balki turli xil vaziyatlarda chet tilini qo'llay bilish orqali o'rgatiladi.

Darsning boshlanishi ham o'zgacha uslubda bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan dialogidan boshlanadi. O'qituvchi yo'l boshlovchi yoki "rejissor" sifatida namoyon bo'ladi hamda talabalar tabula rasa ya'ni bo'sh jadval emas. Dars davomida texnik vositalardan foydalanish ham muhim hisoblanib, avvallari audio kassetalardan foydalanilgan bo'lsa, hozirda kompyuter va lingofon xonalaridan foydalaniladi. Diktant yoki yozma ishlar ham texnik vositalardan foydalangan holda bajariladi. Chet tilida filmlar ko'rish yoki qo'shiqlar, she'rlar kuylash o'sha xalqning madaniyatidan ham bahramand bo'lishga yordam beradi.

Funksional komunikativ metodi esa Yevropa Hamjamiyatining taklifi ostida ta'lim sohasida qo'llanila boshlangan. Boshida bu metod umuman ta'lim sohasini rivojlantirish yoki chet tillarini oliy o'quv yurtlarida o'qitish uchun emas, balki xorij mamlakatlariga muhojir bo'lib boruvchilar uchun qo'l keladigan metod bo'lgan. Bu metodda tilning grammatikasi chuqurlashtirilib o'rgatilmaydi va til grammatika orqali ham o'qitilmaydi. Aksincha, komunikativ bilimlarni rivojlantirish uchun "alomlashish", "tanishish", "o'zini tanishtirish",

“taklif qilish” kabilarning qonun – qoidalari orqali til o’rgatiladi. Bunda so’z turkumlari yoki gap bo’laklaridan ham ko’proq birlik va ko’plik qo’shimchalarini ishlata bilish, otlardagi rot kategoriyasiga e’tibor qaratiladi.

Xorij mamlakatlaridagi madaniy va siyosiy hayot haqida ham bilimlarga ega bo’lish shart. Umuman kommunikativ metodlarini ta’riflaydigan bo’lsak, ularning asoslariga e’tibor qaratish talab etiladi:

1. Til o’qitishning maqsadi oddiygina tilni, uning grammatikasini o’qitish emas, balki muloqot jarayonida to’la – to’kis chet tilida gapira olish qobiliyati. Insonning o’zini yaxshi tutishi, so’zlarni to’g’ri talaffuz qila olishi, fonetik va fonematik jihatdan bilimlarga ega bo’lishi talab etiladi. Tilning barcha jabhalaridan chuqur bilimlar beriladi: a) sotsiolingvistik bilimlar (shevalar, adabiy til, mikrotillar); b) lingvistik bilimlar d) paralingvistik bilimlar (talaffuz, urg’ularning o’z o’rnida qo’yilishi, gapirish ohangi, pauza va boshqalar; e) ekstralingvistik bilimlar (noverbal tilning so’zlashuv jarayonidagi ahamiyati va uni ishlata bilish qonun – qoidalari).
2. Til va madaniyat o’zaro bog’liq, ajralmas hisoblangani uchun chet tilini o’qitish jarayonida madaniyatdan ham saboq berish majburiydir.

Kommunikativ metodini qo’llashning yana bir ijobiy ta’rifi shundaki, unda kommunikatsiya asosiy o’rinni egallaydi. P. Vatzlavik kommunikatsiya jarayonining aksiomalarini (grek tilidan aksioma - dalil isbot talab qilmaydigan haqiqat) metodika faniga kiritadi. Kommunikativ aksiomalarni besh turga bo’ladi:

1. So’zlashmaslik yoki kommunikatsiya olib bormaslikning hech ham iloji yo’q. Har bir so’zlashuv jarayoni hatti – harakatlarsiz kechmagani uchun imo – ishoralarni har tomonlama o’rgangan ma’qul.
2. Kommunikatsiyada mazmun va har xil munosabatlarning mavjudligi. Har bir inson so’zlashganida biron – bir yangilikni yetkazadi yoki bu suhbat buyruq ma’nosida ham bo’lishi mumkin.
3. Kommunikatsiyadagi voqea – hodisalarning ketma – ket tarzda sodir bo’lishi.
4. Kommunikatsiya numerik va analogik tarzda amalga oshiriladi. Numerik kommunikatsiya verbal til orqali amalga oshsa, analogik kommunikatsiya tana

harakati, yuz ifodasi, ovozning ohangdorligi, so'zlarning talaffuzi va kommunikatsiya mavzusi bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.

5. Simmetrik va to'ldiruvchi kommunikatsiya esa so'zlashuvchilarning muloqot jarayonida tutgan o'rniga qarab ajratiladi. Simmetrik jarayonda bir so'zlashuvchi suhbatdoshining hatti – harakati va muloqotiga qarab unga mos ravishda harakat qilishga urinadi. Ikkinchisida esa bir so'zlashuvchi suhbatdoshining hatti – harakati va nutqini to'ldirishga harakat qiladi. Bunda bir so'zlovchi one – up (yuqori) pozitsiyada bo'lsa, yana biri one – down (past) pozitsiyada turadi.

Chet tilidan ta'lim beruvchi har bir o'qituvchining maqsadi birinchi navbatda talabalarda komunikativ bilimlarni rivojlantirishdir. Buning uchun albatta o'qituvchidan bilim va mahorat talab qilinadi. Yevropa Hamjamiyati tomonidan o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan bilimlar jadval tarzida berilgan:¹⁹

Tilni yarata olishi kerak (saper fare la lingua): tilning barcha vositalaridan foydalana bilishi kerak. Yozma va og'zaki nutqda, yozma ishlarda, dialog, tarjima qilish hamda xulosa va ta'riflar berishga, ilovalar tuzishda.	Til bilan yaxshi ishlay olishi kerak (saper fare con la lingua): hamma vaziyatlarda tilni eng yaxshi vosita sifatida ishlata bilishi kerak. Pragmatik va sotsial – madaniy bilimlar o'qituvchiga buning uchun muhim.
Tilni yaxshi bilishi kerak (sapere la lingua): grammatika, fonologiya, grafema, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va matn tahlillarini bilishi va ularni ishlata bilishi juda ham muhim hisoblanadi.	Noverbal til bilan verbal tilni bir – biriga bog'liq holda bilishi kerak (saper integrare la lingua con i linguaggi non verbali): tana tili, jestlar, yuz ifodasi, o'zini tutish usuli, kiyinishi, gapirish uslubi va boshqalar o'qituvchiga xos va mos bo'lishi kerak.

¹⁹ Balboni P.E. Didattica dell' italiano a stranieri

Komunikativ metodda har bir talabaning o'zi bilan, atrofdagilar bilan va uni o'rab turgan dunyo (ham real, ham xayoliy) bilan o'zaro aloqalari, munosabatga kirishishi muhim hisoblanadi. Komunikativ metodi haqida gapirar ekanmi Stiven Krashen tomonidan tadbiq etilgan g'oya va fikrlarni eslamay ilojimiz yo'q. Tilning o'qitilish nazariyasiga binoan Krashen uchta prinsipni muhim deb biladi:

1. Input comprensibile (tushungan holda qabul qilish). Bu gipotezaga binoan har bir talaba chet tilini o'rganayotganida til o'rganishning (shu jumladan inputning) ma'no – mazmuniga, ahamiyatiga diqqat e'tiborini qaratishi kerak, uning qabul qilinish formalariga (fonologik, morfo – sintaktik, matn tahlili bo'yicha va boshqalar) emas. Input ko'pincha talabalarga o'qituvchi tomonidan beriladi.
2. Tabiiy tartib $i + 1$ va "potensial rivojlanish muhiti". Tabiiy tartibning mazmuni shundaki, talabaga input berilgandan so'ng unchalik qiyin bo'lmagan vazifalar har bir talabaning o'zi tomonidan bajariladi. O'zidagi potensial rivojlanish natijasida bu jarayon birin – ketin amalga oshiriladi. Bu nazariya Vigotskiy va Brunerlarning "zone of proximal development " nazariyalariga asoslangan holda til o'qitish jarayonida muhim sanalgani uchun ta'lim jarayoniga kiritilgan. Lekin keyinchalik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlasa, albatta yo'l boshlovchiga (magister, magis – "ko'proq) muhtojlik seziladi.

Krashen taklif etgan formulaga keladigan bo'lsak, $i + 1$ degani: i = allaqachon mavjud bo'lgan, o'rganilgan bilimlarga asoslanib, lingvistik yoki komunikativ vazifalarning bajarilishi. $+ 1$ = potensial rivojlanish muhiti. Ikkita zinani bosgandan so'ng keyingi o'rganish bosqichlari ketma – ket tarzda keladi. Bu ikki vaziyatni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har bir yangi mavzuni o'rganish uchun avval o'rganilgan bilimlarga ham tayaniladi. U bilimlar juda ham kerakli va foydali (condizione neccessaria) dir. $i + 1$ input til o'qitish jarayonida eng yuqori yutuqlarga erishishga yordam beradi.²⁰

²⁰ Krashen S.D., Second Language Acquisition and Second Language Learning, Oxford: Pergamon 1981.

Karder va Shumannlar birgalikda 1967 – yilda chet tillarini o'qitish jarayoniga spiral shakldagi jarayon deb baho beradilar. Chunki, bu jarayon oddiy mavzular va odatiy dars shakllaridan boshlanib, asta – sekinlik bilan son va sifat jihatdan oshib ketaveradi.

3. Filtro affettivo (hissiy, emotsional filtr) – bu ham til o'rganish uchun muhimdir. $i + 1$ filtro affettivo qo'yilmagan bo'lsa, hech ham natija bermaydi. Bu atama ko'chma ma'noda bo'lib, bosh miyada har bir shaxsning o'zi tomonidan yaratilishi kerak. Bu atamani boshqacha nomlaydigan bo'lsak, u "o'chiruvchi" sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunki, dars davomida juda ko'p holatlarda insonning ichki kechinmalari, xavotirlari yoki qo'rquvi darsni tushunish yoki eslab qolishga xalaqit beradi.

Filtro affettivo har bir talabaga o'qituvchi tomonidan tushuntirilishi va ularning har biri dars davomida undan foydalanishlari kerak. Lekin uni ishlatishning ham vaziyatlari har xil bo'ladi. Shulardan birinchisi talaba bezovtalangan holatda. Masalan, diktant yoki yozma ish olganda talaba o'zini xotirjam sezishi uchun o'zining bajargan ishini tekshiradi. Ammo o'qituvchi tomonidan tekshirilib, xatolar va kamchiliklar butun guruh oldida aytilsa, unday holda talabada uyalish, bezovtalik, noqulaylikning sezilishi tabiiy. Umuman o'zining xatolaridan so'ng til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqning so'nish ehtimoli ham bor. Ana shunday holatlarning oldini olish uchun filtro affettivo zarur.²¹

Ikkinchidan, talabada o'ziga nisbatan ishonchning yo'qligi va guruhda o'zini namunali qilib ko'rsata olmaslik holatlarida filtro affettivoga muhtojlik seziladi. Agarda talaba chet tilida yaxshi gapira olmasa, chet tilida monolog, dialog yoki matnlar tuza olish qobiliyatiga ega bo'lmasa, unday holda butun bir guruh oldida uni chet tilida gapirtirish juda mushkul. Filtro affettivo orqali o'sha ishonchsizlik olib tashlanishi kerak. Uchinchidan, talabalar imtihonlardan o'ta olmaslik, yangi matnlarni tushuna olmaslik va boshqa vaziyatlardan qo'rqqan taqdirda juda ham muhim.

²¹ Krashen S.D. The Input Hypothesis New York: Longman, 1985.

Komunikativ metodini qo'llashda har bir o'qituvchi psixolingvistika va nevrolingvistikadan ham xabardor bo'lishi shart. Chunki, bu metodni qo'llash jarayonida uning bu fanlar bilan aloqasi kuchli ekanligiga amin bo'lamiz. Psixolingvistikani oladigan bo'lsak, asrimizning boshigacha bu fan lingvistika fanlari bilan birgalikda o'rganilgan. Faqatgina Ferdinand de Sossyurning (1857 – 1913) tadqiqotlari tufayligina ularning ikkita har xil bo'lgan yo'nalish ekanligi ochib berildi. O'sha paytda psixologiyada ikkita har xil yo'nalish mavjud edi: mentalizm va vexeyviarizm.

Mentalizm asosan Yevropada o'rganilgan bo'lib, o'y – fikrlar va g'oyalar tilga bog'liq holda tassavvur qilingan. Vexeyviarizm esa britan va amerikalik psixologlar boshchiligida tilning tashqi omillaridan, hatti – harakatlaridan kelib chiqishi ta'kidlangan. 1951 – yilda Jorj Miller tomonidan birinchi marotaba so'zlashuv jarayonidagi muammolar tufayli psixologiya va lingvistikaning o'zaro aloqalari o'rganildi. Uch yil o'tib 1954 – yilda Hindistonda psixologlar Carroll, Osgud va tilshunos Sebeoklarning izlanishlari natijasida psixolingvistikaga aniq ta'rif berildi. "Psycholinguistics" sarlavhasi ostida nashr qilingan u asar o'sha paytda yagona asar edi. Psixolingvistik jihatdan til, komunikatsiya – bu nafaqat o'z fikri va g'oyalarini namoyon etishning yo'li emas, balki har bir shaxsning o'zini tutishi va o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishidir. Til o'rganish jarayonidagi inson xotirasi va uning faoliyati ham psixolingvistikada ko'rib chiqiladi.

Nevrolingvistika bo'yicha esa chet tilini o'rganish jarayonida bosh miyaning faoliyati ham muhimdir. Marcel Danesi (1988 – 1998) nevrolingvistika bo'yicha tadqiqotlar olib borib, til o'rganish jarayonida bosh miyaning yarimsharlari ya'ni o'ng va chap yarimsharlarning muhim faoliyati va o'zni haqida ta'kidlab o'tgan.²²

Krashen o'zining Second Language Acquisition Theory nazariyasida biz o'ng yarimshar orqali umumiy ma'noni tushunishimizni va chap yarimshar bilan tahlil (ham grammatik, ham leksik jihatdan) qilishimizni aytib o'tgan. 44 – betda

²² Balboni P.E. Le sfide di Babele Torino:Gravinese, 2010.

berilgan ranglarni o'qishda qiyinchilikka uchraymiz, chunki chap yarimshar o'qiydi va o'ng yarimshar ranglarni ko'radi.

Chet tillarini o'rganishda Danesi ikkita fenomenga alohida urg'u beradi: bimodalita' (ikki uslublilik) va direzionalita' (yo'nalishlilik). Bimodalita' jarayonida talabalarda komunikativ bilimlarni oshirishda o'ng va chap yarimsharlarining faoliyati muhim. Lekin bu fikr o'zini oqlamaydi. 70 – yillarda italyan metodisti Giovanni Freddi tomonidan ham chet tilini tez va yaxshi o'zlashtirish uchun ikkala yarimsharlarning ham faoliyati muhim ekanligi aniqlangan edi. Stiven Krashen ham o'z navbatida bu fikrni ma'qullaydi.

Direzionalita' da esa bimodalita' jarayoni to'liq, aniq yo'nalishda bo'lsa, keyingina yaxshi natijalarga erishiladi. O'ng yarimshar chap yarimsharga ma'lumotlarni yetkazish vazifasini bajargan taqdirda direzionalita' jarayonida yutuqlarga erishish mumkin. Lekin til o'qitish jarayonida ko'proq bimodalita' ishtirok etadi. Chet tilida gaplashishdan zavqlanish, boshqa yangi bir madaniyatga bo'lgan qiziqishlar o'ng yarimshar orqali yuzaga kelsa, til o'rganishga undovchi sabablar va ehtiyojlar chap yarimshar orqali amalga oshadi.

Inson miyasini ta'riflar ekan Edoardo Boncinelli barcha tirik jonzoatlarning miyasi uch davrni boshdan kechirishi mumkinligini ta'kidlaydi:

1. Shakllanish davri (la formazione).
2. Barkamolikka erishgan davri (la maturita').
3. Qarilik davri (l'invecchiamento).

Inson bosh miyasi uning 38 haftalik davridan boshlab shakllana boshlarkan. Dunyoga kelganimizning birinchi oylaridan to 60, 70,.... 100 yoshlargacha ham bizning miyamiz qabul qilish qobiliyatini yo'qotmas ekan. Hali juda ham murg'ak bo'lishiga qaramasdan, go'daklar ona chehrasini, o'yinchoqlarni eslab qola oladilar. Lekin hayvonlarda eslab qolish jarayoni juda qisqa bo'ladi. Hayvon bolasining tug'ilganidan keyin onasi bolasini bola esa onasini taniydi. Keyinchalik, bola katta bo'lgach, ikkalasi ham o'z yo'li bilan boradi va bir – birini boshqa tanimaydi.²³

²³ Paolo F.A. Almanacco della scienza , Roma, Ariccia, 2010.

Insonlarda esa aksincha bu jarayon butun umrga davom etadi. Ya'ni ota – oana va farzandlar har doim bir – birlarini taniydilar. Ba'zilar hatto minglab insonlarning ismini esda saqlay oladilar. Xotira, nutq va aql inson umrining birinchi yillaridan shakllana boshlaydi va asta – sekinlik mukammallashib boraveradi. Hali endigina dunyoga kelgan, yangi chaqaloqlarning bosh miyasida o'tkazilgan tajribadan so'ng shu narsa aniqlandiki, hali ulg'aymagan, yosh miya juda yaxshi tartibda ishlarkan. Bu tajribada chaqaloqlarning boshiga temir moslamali qalpoq kiygizilgan va qalpoq orqali ularning bosh miyasiga so'zlar va har xil shovqin ovozlari yuborilgan. Shovqinlar miyaning bir tarafiga, so'zlar esa miyaning nutq bilan bog'liq tarafiga brogan. Keyin mana shu so'zlarni aksincha, chapa tarafidan yuborilganda, ular bosh miyaning boshqa tarafiga brogan, nutq bilan bog'liq tarafiga emas. Chunki, bosh miyamizda nutq qoliplari mavjud va ular noto'g'ri ma'lumotlarni qabul qilmaydi.

Ulg'aygan miya esa 18 yoshdan boshlab barkamol bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi miya eng mukammal, eng to'liq, kamchiliklarsiz yoshdagi miya hisoblanadi. Inson bosh miyasini o'rganuvchi nevrologiya fanlari 40 – 45 yillar oldin vujudga kelgan bo'lsa- da, har kuni yangi – yangi tajribalar orqali yutuqlarga erishilmoqda. Mana shu erishilgan yutuqlar chet tillarini o'qitish metodlarida ham foydalanilsa, ta'lim sohasida ham siljishlar ko'p bo'lardi. Ayniqsa, kommunikativ metodlarida inson bosh miyasining faoliyati, uning xotirasi asosiy rol o'ynaydi.

Xotira haqida gapiradigan bo'lsak, Boncinelli uni ikki turga bo'ladi:

1. Izohli xotira (la memoria dichiarativa).
2. Muolajali xotira (la memoria procedurale).

Izohli xotira – bu inson tomonidan umumiy va oddiy bo'lgan axborotlarni esda saqlab qolish. Masalan, AQSHning poytaxti Vashington yoki Bolgariya davlatining poytaxti Sofiya.

Muolajali xotira esa velosiped yoki konkida borayotganimizda va hatto ovqatlanayotganimizda ham kerak bo'ladigan xotira. Bundan tashqari, uzoq yoki qisqa muddatli xotira ham bo'ladi. Telefon raqamlari yoki boshqa shunga o'xshash

raqamlarni oladigan bo'lsak, biz ularni tez unutamiz. Lekin o'zimizga yoqadigan va biz uchun qiziq bo'lgan narsa va hodisalarni hech qachon esdan chiqarmaymiz. Bizga yoqmaydiganlarini esa darrov unutamiz. Bosh miyaning ucninchi, qarilik paytida esda saqlab qolish qobiliyati pasayadi va bosh miyaning faoliyati ham sekinlashadi. Ba'zi bir yoshi katta insonlar xotirasidan ham ayrilib qoladilar.

Bob II ga xulosa

Yuqorida ko'rib chiqqan ma'lumotlardan foydalangan holda shuni aytish kerakki italyan tilining o'qitish metodikasida chet tillarini o'qitish bo'yicha hozirda ko'p ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, glottodidaktikani oladigan bo'lsak, chet tillarini yoki aynan italyan tilini bu fan taklif etayotgan usullar orqali o'qitilsa, P.E. Balboni aytganidek nafaqat ta'lim sohasini, balki butun dunyoni ham o'zgartirish mumkin. Asosan kommunikativ metodi barcha ko'rib chiqqan metodlarimiz ichida eng yaxshisi desak adashmaymiz. Biz to'rtinchi kurs talabalari ham o'zimizning ped – amaliyotimiz davomida italyan tilini o'qitish jarayonida glottodidaktika taklif etgan metodlardan foydalanishga harakat qildik.

Chet tilini o'rganish jarayonida inson bosh miyasining faoliyati, insonning xotirasi, aqliy faoliyati juda muhimdir. Edoardo Boncinelli taklif etgan nazariya asosida esa bosh miyaning va inson xotirasining til o'rganayotgandagi holatini bilib olishga harakat qildik.

Marcel Danesi ham til o'qitish jarayonida psixolingvistika va nevrolingvistikaning o'zni dolzarbligini ta'kidlab, har bir til o'qituvchisi bu fanlardan xabardor bo'lishi zarurligini aytib o'tgan. Biz bugun o'ta rivojlangan, "murakkab" jamiyatda yashayotgan ekanmiz, yangi innovatsion texnologiyalar, metodlar, fanda erishilayotgan oxirgi yutuqlardan xabardor bo'lishga harakat qilaylik. Eskirgan, hech qanday natijalar bermaydigan, talabalarda xohish – istakni uyg'otishning o'rniga ularni zeriktiradigan metod va dars o'tish usullaridan voz kechaylik.

Hozirgi kunda butun O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitish metodikasining muhim fan sifatida o'qitilishi ham bejiz emas albatta. Bu

fan talabalarda so'zlashuvni, to'g'ri yozish va o'qishning o'ziga xos tamoyillarini yaxshi o'rganishda ham asos bo'lishi mumkin. Prezidentimiz I.A. Karimov ham biz yoshlarning sifatli ta'lim olishimiz uchun yangi innovatsion texnologiyalar va metodlarning, chet tillarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Bu fan nafaqat O'zbekiston, balki barcha rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sistemasida muhim fanlardan biri sanaladi va katta e'tibor bilan talabalarga o'rgatiladi.

X U L O S A

Biz to'rtinchi kurs talabalari o'zimizning ped – amaliyotimiz davomida 3 – kurs metodika fanida o'rgangan bilimlarimiz va rahbarimiz boshchiligida o'z ped amaliyotimizni a'lo darajada olib borishga harakat qildik. Dono Konfutsiyning eshitsam,unutaman.Ko'rsam. eslab qolaman va bajarsam, tushunaman degan ibratli gaplari biz uchun shior bo'ldi desam adashmayman. Ped amaliyotimizning birinchi kunida maqsadlar aniqlab olindi va ular quyidagicha edi:

1. Institutimizning dasturiga kiritilgan 3 – kurs metodika darsida o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash.
2. Til o'qitish jarayonida har bir talaba o'zini o'qituvchi rolga sola bilishi kerak edi (filtro affettivo, til bilan ishlay bilish).
3. Institutning tashkiliy hamda normativ qonun – qoidalariga ham e'tiborni qaratish.

Pedagogik maqsadlar kuchli va zaif taraflarni kuzatish orqali quyidagicha belgilandi:

P.Balbonining uchburchak sxemasi asosida darsni olib borishda talabalarni joylashtirish, prezentatsiya va qonunlarga rioya qilish;darsning maqsadi aniq bo'lishi va o'sha maqsadga yeta olish darajasi;foydalanilgan ko'rgazmali qurollar;italyan tili bo'yicha ega bo'lgan bilimlar;feedback (talabalarning munosabati);filtro affettivo – harorat (sinfda, guruhda).

Ped amaliyotchilar o'zbek va rus guruhlarining talabali birlashtirilgan holda uchta guruhga bo'linishdi:Pippo, Pluto va Paperino.Darslar ikkita ped amaliyotchi tomonidan 20/ 25 daqiqa o'tiladi va undan keyingi vaqt debriefing uchun qodiriladi.Debriefing boshqa xonada ped amaliyotchilar va kuzatuvchilat bilan birga bo'ladi.Debriefingning maqsadi o'qituvchi – ped amaliyotchining darsi davomidagi kuchli hamda zaif taraflarini aniqlash.Har bir kuzatuvchi oltita qism bo'yicha 0 dan boshlab to 5 gacha baholaydi.Bizning rahbarimiz esa barcha tanqidlarni va baholarni eshitib, oxirgi bahoni chiqaradilar.Albatta har doim bo'lganidek ped amaliyotda ham kimdir yuqori yana kimdir past baholanadi.Bu

ham har bir ped amaliyotchining qilgan sa'y – harakatlariga bog'liq. Quyida keltirilgan tartib orqali biz har bir o'qituvchi – ped amaliyotchini baholaganmiz:

Presentazione, regole — O'zini tanishtirish va qonun - qoidalarga rioya qilish.

Obiettivo, efficacia — Darsning maqsadi va shu maqsadga yetisha olish darajasi.

Strumenti — Dars davomida qo'llanilgan ko'rgazmali yoki oddiy qurollar.

Competenza linguistica — O'qituvchi ped amaliyotchining italyan tili bo'yicha bilimlari.

Lo stile — Darsning o'tilish uslubi va o'ziga xoslik xususiyatlari.

Il clima — Dars davomidagi harorat.

Birinchi presentazione, regoleda asosan talabalar bilan tanishuv jarayoni, vaqt va belgilangan normalarni hurmat qilgan holda qonun – qoidalarga rioya qilish. Bunda o'qituvchi ped amaliyotchining o'zini tutishi, kiyinishi, hayajon va qo'rquvlarni sezdirmaslik xususiyatlari hisobga olinadi.

Obiettivo, efficacia da darsda ped amaliyotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi, u maqsadga yeta olishi yoki yeta olmasligi, talabalarning mavzuni tushunishi, mavzu bo'yicha berilgan vazifalarni a'lo darajada bajarishlari bo'yicha baholanadi.

Strumenti qismida darsda qo'llanilgan barcha qurollar hisobga olinadi. Ammo o'sha ishlatilgan qurollar darsning maqsadiga yeta olishi uchun yordam berishi va mavzuga taalluqli bo'lishi kerak.

Competenza linguisticada barcha to'tinchi kurs ped amaliyotchilarining to'rt yil davomida o'rgangan va dars o'tish davomida o'sha o'rgangan bilimlarini namoyish eta olish qobiliyatlari baholanadi.

Lo stile qismida dars o'tayotgan talabaning o'ziga xos dars o'tish uslubi va o'sha uslubning qanday yutuq va kamchiliklarga ega bo'lganiga e'tibor qaratiladi.

Il climada dars davomidagi o'qituvchi ped amaliyotchi va talabalarning darsdagi kayfiyati, talabalarning dars davomidagi faolligi, darsga qiziqish yoki qiziqmasliklari hisobga olinadi.

Il villaggio turistico ya'ni "sayohatchilar qishlog'i".Biz ped amaliyotimizning ikkinchi qismini aynan shunday nomlagandik.Chunki, ikkinchi qismda nafaqat ped amaliyotchilar balki talabalarni ham diqqat bilan kuzatishni boshladik.Bizning "sayohatchilar qishlog'i"mizda 12 ta o'ziga xos roller mavjud edi.Mana shu rollar asosida biz ham talabarni ham ped amaliyotchilarni baholardik:

1.Direzione (boshliq):kishilarni boshqara oladigan,ularning diqqat e'tiborini bir joyga jamlay oladigan shaxs.

2.Capanna di lusso (hashamatli uycha):o'ziga yuqori baho beradigan kalondimog' shaxs (snob deb ham ataladi).

3.Capanna normale (oddiy uycha):oddiygina, hech qanday shikoyatlarsiz yashovchi shaxs.

4.Casetta equitazine () :qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlari ko'p bo'lgan shaxs.

5.Sala spettacolo/animatori/spettatori(spektakl ko'rsatiluvchi zal/ animatorlar/muxlislar):boshqalarni kuldiradigan, sahna qo'yib zavqlanuvhilar.

6.Ristorante/Bar (restoran yoki bar):juda ham e'tiborli va o'zgalarga bajbur bo'lganidan g'amxo'rlik qiluvchi shaxs.

7.Ambulatorio/medico (tez yordam/shifokor): har doim hammaga yordam beradigan shaxs.

8.Piscina (basseyn):o'zini charchatib qo'ymaydigan, hamma bilan kelisha oladigan shaxs.

9.Cameriera (offitsiant) : boshqalarga xizmat ko'rsatadigan, xizmatkorlarga xos xislatlarga ega shaxs.

10.Uomo di fatica (hayoti qiyinchiliklarga to'la shaxs):o'zining muhim ishlari bo'lgan ammo faqat arzimaydigan ishlar bilan shug'ullanuvchi shaxs.

11.Surfista (syurfist): "to'lqinlardan o'ta oladigan", hamma vaziyatdan chiqib keta oluvchi shaxs.Ba'zida o'zi bilan o'zi bo'lib ham qoladi.

12.Persona che prende il sole (oftobda tovlanib yotuvchi shaxs):hech kim bilan ishi bo'lmagan, o'zboshimcha shaxs.

Xuddi ana shunday rollar asosida biz ped amaliyotchilar va talabalarni baholadik. Bir talaba hech qachon bitta rolda turmaydi, aksincha har xil vaziyatlarda har xil rollarni ijro etishi mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, italyan tili va boshqa chet tillarining metodikasini yaxshi bilgan holda biz rahbarlarimiz Massimo Toscani va Giovanna Vialelar bilan o'z ped amaliyotimizni a'lo darajada yakunladik. Ba'zi bir darsga qiziqishi bo'lmagan, sust talabalarda ham hatto rahbarlarimiz qo'llagan metodlar asosida katta qiziqishlar paydo bo'ldi va ular o'zgara boshladi. Shuning uchun ham metodika bu talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham juda muhim hisoblangan fandır.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Karimov I.A. ,Barkamol avlod orzusi, Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ;2000 – yil.
- 2.Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasidagi 48 – ma'ruza Toshkent, O'zbekiston 2012 – yil.
- 3.Agliotti s., Fabbro F.,Cervello poliglotta e apprendimento delle lingue Perugia:Guerra 1999 – yil.
- 4.Albert M.L., Obler M.K. The Bilingual Brain , New York :Academic Press 1978.
- 5.Anzalone F.,Caburlotto F., Comunicare in rete:l'usabilita', Milano:Lupetti 2002 .
- 6.Arcaini E., Interlingua , Roma :Istituto dell'Enciclopedia Italiana 1984.
- 7.Artigal J.M.,Laurean C., Immersione linguistica per una futura Europa Bolzano:Alpha & Beta 1996.
- 8.Balboni P.E. Elementi di glottodidattica.Guida all'esame di concorso, Brescia: La Scuola 1985
- 9.Balboni P.E. Storia degli insegnamenti linguistici nella scuola italiana , Torino:Liviana/Petrini 1988.
- 10.Balboni P.E. Didattica dell'italiano a stranieri, Roma: Bonacci 1994.
- 11.Balboni P.E. Dizionario di glottodidattica Perugia: Guerra 1999.
- 12.Balboni P.E. Le sfide di Babele Torino:Gravinese 2010.
- 13.Barni M., Villarini A. La questione della lingua per immigranti stranieri:insegnare, valutare, certificare le competenze in italiano, Milano:Franco Angeli 2001.
14. Bernini G., Pavesi M. Lingue straniere e universita', Milano: Franco Angeli 1992.
- 15.Bertacci M., Sanzo R., Le lingue straniere nella scuola elementare: una sfida europea, Roma:Anicia 1994.
- 16.Bertocchi D., Castellani M.C., Modulo di formazione per insegnanti, Genova:Sagep 1999.

17. Bettoni C., Imparare un'altra lingua. Lezioni di linguistica applicata, Roma – Bari : Laterza 2001.
18. Borello E., Seicento anni di insegnamento delle lingue straniere. Storia della glottodidattica. Chieri: TTS 1996.
19. Danesi M. Teaching Heritage Languages to Students with Dialect Background, Toronto: OISE Press 1983.
20. Danesi M. Neurolinguistica e glottodidattica, Padova: Liviana 1988.
21. Danesi M. Il cervello in aula, Perugia: Guerra 1998.
22. Demetrio D., Favaro G. Immigrazione e pedagogia interculturale, Firenze: Nuova Italia 1990.
23. Dubin F., Olshtein E. Course Design. Developing Programs and Materials for Language Learning, Cambridge: Cambridge University Press 1986.
24. Eco U. Sulla letteratura, Milano: Bompiani 2002.
25. Favaro G. Progetto di formazione linguistica in Italiano seconda lingua, Milano: Franco Angeli 1997.
26. Frabboni F. Incontrarsi in Europa. Educazione interculturale e scambi giovanili, Milano: Mursia 1990.
27. Freddi G. Lingue straniere e istruzione primaria in Italia e in Europa, Veneto, Padova, Liviana 1988.
28. Freddi G. Glottodidattica: fondamenti, metodi e tecniche, Torino: Utet Libreria 1994.
29. Freddi G. Psicolinguistica, Sociolinguistica, Glottodidattica. La formazione di base dell'insegnante di lingue e di lettere, Torino: Utet Libreria 1999.
30. Garcia E., Understanding and Meeting the Challenge of Student Cultural Diversity, Boston: Houghton Mifflin 1994.
31. Gattullo F., Leoni P. Italiano lingua seconda Milano: Franco Angeli 2001.
32. Giacalone Ramat A. L'apprendimento spontaneo di una seconda lingua, Bologna: Mulino 1986.
33. Gobbo F., Pedagogia interculturale, Roma: Carocci 2000.

34. Gotti M., Testi Specialistici in corsi di lingue straniere, Firenze:La Nuova Italia 1992.
35. Hermann N.,Ponti Dompe' D.Guida per imparare le lingue in tandem via Internet, Torino:Trauben 1997.
36. Krashen S.D. Second Language Acquisition and Second Language Learning, Oxford:Pergamon 1983.
37. Krashen S.D. The Input Hypothesis, New York :Longman 1985.
38. Margiotta U., Formazione del curriculum e formazione dei talenti, Roma:Armando 1997.
39. Mazzotta P. Strategie di apprendimento linguistico e autonomia dello studente, Bari:Adriatica 1996.
- 40.Padoan I., L'agire comunicativo.Epistemologia e formazione, Roma : Armando 2000.
- 41.Paolo Flores d' Arcais,Almanacco della scienza,Roma:Arccia 2010.
42. Pedro' Francesi, Tradizione e innovazione nella scuola europea,articolo numero 295 Roma,1993.
43. Pichiassi M., Fondamenti di glottodidattica.Temi e problemi della didattica linguistica.Perugia:Guerra 1999.
44. Porcelli G.,Principi della glottodidattica, Brescia: La Scuola 1992.
45. Serra Borneto C., C'era una volta il metodo.Tendenze attuali nella didattica delle lingue straniere, Roma:Carocci 1998.
46. Titone R., Glottodidattica:un profilo storico, Bergamo:Minerva Italica 1982.
- 47.Titone R., Grammatica e glottodidattica.Nuove prospettive, Roma:Armando 1992.
48. Titone R., La comunicazione in classe, Milano: Bompiani, 1997.
- 49.Titone R., Psicolinguistica applicata e glottodidattica, Roma: Bulzoni 1986.
- 50.Zincone G. Primo rapporto sull'integrazione degli immigrati in Italia, Bologna : Mulino, 2000.

Elektron adabiyotlar

51.w.w.w. berlitz.com

52.w.w.w.diadori.it

53.w.w.w.unistrasi.it